2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI O‘ZBEKISTON

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 230 (1829), 2026-yil 6-noyabr, juma

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

DAVLATIMIZ RAHBARI OSTONA SHAHRIDAGI UCHRASHUVLARDA ISHTIROK ETADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 5-noyabr kuni Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev hamda Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi Abdulla II taklifiga binoan amaliy tashrif bilan Ostona shahriga keldi.

Aeroportda mamlakatimiz yetakchisini Qozog‘iston Respublikasi Bosh vaziri Oljas Bektenov va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

6-noyabr kuni Prezidentimiz sun’iy intellekt sohasida xavfsizlikni ta’minlash, uning terroristik va ekstremistik maqsadlarda ishlatilishi bilan kurashish hamda yangi texnologik xatar va tahdidlarga qarshi turishda xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash masalalariga bag‘ishlangan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Aqaba jarayoni doirasidagi uchrashuvida ishtirok etadi.

O‘zA

TOG‘-KON SANOATIDA YANGI INVESTITSIYA LOYIHALARI AMALGA OSHIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev “Navoiyuran” korxonasi va “O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” aksiyadorlik jamiyatining 2026-yildagi ustuvor vazifalari hamda kelgusi rejalari yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Bugungi kunda jahonda muhim minerallar va metallarga talab jadal o‘sib bormoqda. Xususan, an’anaviy metallarga talab yiliga o‘rtacha 1 foizga o‘sayotgan bo‘lsa, kritik minerallar bozorida bu ko‘rsatkich 10 foizni tashkil etmoqda. Shunga mos ravishda mamlakatimizda ham mavjud mineral-xomashyo bazasidan samarali foydalanish, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

Taqdimotda dastlab “O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” faoliyati va uni rivojlantirish rejalari ko‘rib chiqildi.

Kombinatda geologiya-qidiruvdan tortib, qazib olish, boyitish, chuqur qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo‘lgan to‘liq texnologik zanjirni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Joriy yil yakuniga qadar 12 ta investitsiya loyihasini ishga tushirish, mahalliylashtirilgan mahsulotlar turini ko‘paytirish, yuqori soflikdagi selen va tellur ishlab chiqarishni kengaytirish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari muhim minerallar bo‘yicha istiqbolli loyihalarni tezlashtirib, mavjud 5 turdagi mahsulotga (volfram, molibden, selen, tellur, reniy) qo‘shimcha ravishda yana 11 turdagi mahsulot (nikel, kobalt, grafit, surma, qalay, marganes, platina, vanadiy, simob va mis) ishlab chiqarishni o‘zlashtirish vazifasini qo‘ydi. Shuningdek, sohaga ilm-fan yutuqlarini keng jalb etib, qo‘shimcha mineral zaxiralarni aniqlash muhimligi ta’kidlandi.

Rejaga ko‘ra, 2030-yilgacha 16 turdagi muhim metallar bo‘yicha ishlab chiqarish hajmini 2,7 milliard dollardan oshirish ko‘zda tutilmoqda.

Ayniqsa, volframni chuqur qayta ishlash bo‘yicha yirik loyihalar ishlab chiqilgan. Ularni amalga oshirish uchun 1,1 milliard dollar investitsiya jalb qilish, 2030-yilga borib, ushbu yo‘nalishda ishlab chiqarish hajmini qariyb 2,2 milliard dollarga yetkazish mo‘ljallangan.

Shuningdek, noyob va kamyob yer elementlariga boy istiqbolli maydonlarni o‘zlashtirish, kombinatning resurs bazasini kengaytirish va investitsiya loyihalarini jadallashtirish yuzasidan takliflar ko‘rib chiqildi.

Taqdimotda “Navoiyuran” korxonasining joriy yildagi faoliyati va ishlab chiqarishni rivojlantirish rejalari ham muhokama qilindi.

So‘nggi yillarda jahon bozorida uran xomashyosiga talab 15-20 foizga oshgan. 2030-yilgacha esa yana 28 foizga o‘sishi kutilmoqda.

Bunday sharoitda mamlakatimizda uran qazib olish hajmini ko‘paytirish, yangi konlarni o‘zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va uran sanoatini zarur resurslar bilan barqaror ta’minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu maqsadda joriy yilda geologiya-qidiruv va texnologik burg‘ilash ishlarini kengaytirish, ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, qo‘shimcha sorbsiya qurilmalarini ishga tushirish hamda 250 ta yangi ish o‘rni yaratish rejalashtirilgan.

Korxonaning ishlab chiqarish hajmlarini oshirishda zarur kimyoviy reagentlar ta’minoti muhim o‘rin tutadi. Shu bois, mahalliy sanoat korxonalari o‘rtasidagi kooperatsiyani kuchaytirish, texnik oltingugurt, sulfat va nitrat kislotasini yetkazib berish hajmlarini ko‘paytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan axborot berildi.

Prezidentimiz ishlab chiqarishda muqobil texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish, 2030-yilgacha sulfat kislotasi o‘rnini bosuvchi reagentlar ulushini 40 foizga yetkazish zarurligini qayd etdi.

Umuman, ushbu chora-tadbirlar va yangi ishlab chiqarish quvvatlari hisobiga 2030-yilgacha uran ishlab chiqarish hajmini joriy yildagi 7,5 ming tonnadan 15 ming tonnaga, aniqlangan zaxiralar hajmini esa 200 ming tonnaga yetkazish rejalashtirilmoqda.

Taqdimot yakunida mutasaddilarga investitsiya loyihalarini o‘z vaqtida amalga oshirish, korxonalarning mineral-xom-ashyo bazasini mustahkamlash, yangi texnologik quvvatlarni ishga tushirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport hajmini oshirish yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi.

O‘zA

O‘Z ISHIMIZ – O‘Z G‘ALABAMIZ!



Yoxud paxtachilik sohasida YANGI O‘ZBEKISTON MO‘JIZASI qanday yaratilgani haqida ijtimoiy-siyosiy esse

1980-YIL SENTABR TONGI. QO‘RQUV

O‘shanda 10 yashar bola edim. Ammo davrning ba’zi og‘irliklarini, turmushning mavsumiy tashvishlarini, kattalar qayg‘ularini kichik jussam va murg‘ak aqlim bilan his eta boshlaganimni hozir ham yaxshi eslayman.

Otam rahmatli Ikkinchi jahon urushida va undan keyingi allaqanday tushunarsiz harbiy safarbarlikda 7 yil jang qilgan. Urush yillarining o‘qli jarohatidan tashqari, uning vujudini yana boshqa alamlar, o‘kinch va mustabid bir dardlar ham qaqshatib turganini ich-ichimdan, bolalarcha bir sezgi bilan anglardim...

Erta tongdan hovlidagi shovqin-surondan uyg‘onib ketdim. Mavhum xavotir bilan derazadan hovli tomon mo‘raladim. Xazonrezgi boshlangan. Katta shoxiga ip arqondan arg‘amchi osilgan o‘rik daraxtidan yerga to‘kilgan barglar ustida kuzgi shudring tomchilari tovlanadi. Bo‘g‘iq, jahldor va alamzada so‘zlar aralashgan ovozlar darvoza tomondan eshitiladi.

— Qizimning isitmasi chiqib turibdi, bir-ikki kun uyda qolishga ruxsat beringlar, — deydi otam kimgadir.

— Musurmon ota, o‘zingiz urushda bo‘lgansiz, o‘sha paytlarda manov askar shamollab qolibdi, isitmasi bor ekan, qo‘-yinglar, dam olsin deganini ko‘rganmisiz, yo‘q. Yaxshi tushunasiz, paxta ham katta bir front. Shamollash-pamollash degan gaplar ketmaydi. Planni bajarishimiz kerak axir. Paxta bu siyosat, unga qarshi chiqqanlar davlatga, siyosatga dushman, — deydi u.

Egnimga onam tikib bergan paxtali choponimni ilib, sekin tashqariga chiqdim. Darvoza tomon yurib, qarasam, maktabimiz direktori turibdi. Bilishimcha, opam paxta terimiga chiqmagani uchun, uyga o‘zi kelib, uni olib ketmoqchi. Ahdi ham, shaxdi ham shu.

“Davlatga, siyosatga dushman”. Bu so‘zni eshitgan otamning rangi oqarib ketdi. Men esa qaltirab, devor pinjiga tiqildim. Dahshatli so‘z — dushmanlik...

Xullas, o‘sha kuni direktor kasal opamni dalaga olib ketdi. Majburlab-majburlab olib ketdi. Ota-onam uyda izillab-izillab qolaverdi, davlatga, siyosatga dushman bo‘lishdan qo‘rqdi. Aslo o‘zlari uchun qo‘rqmadi, opam, men, aka-ukalarimning ertangi kunidan qo‘rqdi ular. Men ham ko‘p yillar qo‘rquvda yashadim. Har safar kuz boshlanaversa, o‘sha voqea yodimga tushib, qo‘rqaverdim-qo‘rqaverdim. Shu birgina qo‘rquv iskanjasida roppa-rosa 48 yil umrim o‘tibdi. Bir el yangilanadigan davr bu.

Men o‘zim paxta ishi bilan bog‘liq yana bir qator “an’analar”ga guvoh bo‘lganman. To‘g‘ri ularni keyinroq ham aytsam bo‘lardi, ammo hozir o‘sha davrlarning achchiq alami ustida o‘tirib, hammasini aytib-aytib olgim kelayotgan bo‘lsa, menda nima ayb?!

Davomi 3-betda

Nuqtayi nazar

TARIXIY XIRMON – ILM-FAN, ISLOHOT VA ZAHMATLI MEHNAT SAMARASI

Prezidentimizning O‘zbekiston dehqon va fermerlari, klaster xodimlari hamda barcha qishloq xo‘jaligi mehnatkashlariga yo‘llagan tabrigida paxtachilikda erishilgan tarixiy natijaning mazmun-mohiyati, uni ta’minlagan omillar va kelgusi vazifalar chuqur tahlil etilgan. Ushbu yutuq, avvalo, sohadagi islohotlar, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi, zamonaviy agrotexnologiyalar hamda dehqon va fermerlarimizning fidokorona mehnati samarasidir.

Tabrikda qayd etilganidek, mamlakatimizda ilk bor 5 million tonnadan ziyod paxta xirmoni bunyod etildi. Bu natija paxtachiligimiz tarixida yangi bosqichni boshlab bergani bilan birga agrar sohada tanlangan taraqqiyot yo‘lining to‘g‘riligini ham tasdiqlaydi.

Avvalo, ushbu tarixiy natijaga hissa qo‘shgan barcha dehqon va fermerlarimiz, klaster xodimlari, agronomlar, suvchilar, mexanizatorlar, olimlar va soha mutaxassislariga samimiy minnatdorlik bildiramiz. Bu yilgi xirmon ortida minglab insonlarning mashaqqatli mehnati, bilimi va tajribasi, o‘z ishiga mas’uliyat bilan yondashuvi mujassam.

Eng muhimi, bu natijaga paxta maydonlarini kengaytirish orqali emas, balki har bir gektar yerdan olinayotgan hosilni ko‘paytirish, suv va boshqa resurslardan samarali foydalanish hisobiga erishildi.

Paxtachilikdagi eski yondashuvlardan yangi taraqqiyot modeliga

Davlatimiz rahbari tabrikda sobiq ittifoq davridagi paxtachilik bilan bugungi natijalarni taqqoslab, sohadagi o‘zgarishlar ko‘lamiga alohida e’tibor qaratgani bejiz emas.

Haqiqatan, o‘tgan asrning 80-yillarida qariyb 2 million gektar yer paxta yetishtirishga ajratilgani holda, o‘rtacha hosildorlik 30 sentnerdan oshmagan. 2000-yilda esa 1,4 million gektar maydondan 3 million tonna paxta yig‘ib olingan.

Keyingi yillarda chigit ekiladigan maydonlarni 38 foiz qisqartirish, paxta monopoliyasiga barham berish, majburiy mehnat amaliyotini tugatish va sohani ilm-fan hamda zamonaviy agrotexnologiyalar asosida rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratildi.

Davomi 2-betda

E’TIBOR, IMKONIYAT VA RAG‘BAT BO‘LSA, HAR BIR AYOLDA ULKAN SALOHIYAT BOR

Munosabat



Kuni kecha hayotimdagi eng hayajonli, unutilmas kunlardan biri bo‘ldi. Davlatimiz rahbarining Buxoro viloyatiga tashrifi doirasida o‘tkazilgan yig‘ilishda tumanimizni rivojlantirish bo‘yicha 2027-yilgacha belgilab olgan yirik rejalarimiz va istiqbolli loyihalarimiz haqida so‘zlab berdim. Prezidentimiz kamtarona mehnatimni yuksak baholab, meni “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlash to‘g‘risida farmon imzolashini e’lon qildi.

Ko‘ksimga bu yuksak mukofot taqib qo‘yilayotgan lahzalarda ko‘z oldimdan shifokorlik yillarim va hokimlik mas’uliyatini yelkamga olgan ilk kunlarim birma-bir o‘tdi. O‘tgan yili “El-yurt hurmati” ordeniga loyiq ko‘rilgan edim. Navbatdagi nufuzli mukofot esa yelkamdagi mas’uliyatni yanada oshirdi.

Davomi 2-betda

Bu yil qariyb 400 ming gektar maydonda o‘rtacha hosildorlik 70 sentnerga yetgani, salkam 70 ming gektardan esa 100-110 sentnergacha hosil olingani ana shu ilmiy va texnologik yondashuvlarning amaliy natijasidir.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 6-noyabr, 230-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

E’TIBOR, IMKONIYAT VA RAG‘BAT BO‘LSA, HAR BIR AYOLDA ULKAN SALOHIYAT BOR

Munosabat



Nargiza NE’MATOVA,
Buxoro viloyati
Olot tumani hokimi,
“Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni sohibi

Boshlanishi 1-betda

To‘g‘risini aytishim kerak, ushbu muvaffaqiyatlar faqat meniki emas. Bu — Olotning zahmatkash, or-nomusli, bugungi islohotlarga ishonib, o‘z taqdirini o‘zgartirishga kuch topgan minglab tumandoshlarimning mukofoti. Aslida, kasbim shifokor. Yillar davomida odamlar dardiga malham bo‘lishga, ularning vujudidagi dardni, tanasidagi og‘riqlarini davolashga intildim.

2020-yilda esa Buxoro viloyati tarixidagi ilk ayol hokim sifatida Olot tumaniga tayinlandim. Shunda nafaqat insonlar sog‘lig‘i, balki butun boshli tuman ahlining taqdiri, ijtimoiy dardi va kelajagi uchun mas’ul ekanimni yanada teranroq anglab yetdim.

Hokim sifatida ish boshlagan ilk kunlarimda o‘z oldimga katta maqsad qo‘ygandim: Buxoroning shu olis hududida chorasiz, e’tibordan chetda qolgan, kelajagiga ishonchini yo‘qotgan birorta ham xotin-qiz qolmasligi kerak. Shu bois, faoliyatimni boshlagandagi ilk ishimiz sharoiti og‘ir, ishsiz, uysiz va ijtimoiy himoyaga muhtoj qiynalgan xotin-qizlar uchun 60 xonadonga mo‘ljallangan turar joy binosini qurib, ularni issiq va shinam boshpana bilan ta’minlash bo‘ldi. Qo‘llab-quvvatlov va yaratib berilgan keng shart-sharoitlar tufayli bugun mutlaqo yangi Olot qurildi.

Biz nafaqat uy-joy, balki kelajagimiz bo‘lgan farzandlarimiz tarbiyasiga ham alohida e’tibor qaratdik. Hokim bo‘lgan vaqtimda, ya’ni 2020-yilda butun Olot tumani bo‘yicha atigi 7 ta bog‘cha bor edi. Bugungi davr islohotlari va yangilanishlar nafasi samarasida zamonaviy, barcha sharoitlarga ega maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni 35 taga yetdi.

Mamlakatimizdagi islohotlarning eng insonparvar jihatlaridan biri mahallabay ishlash tizimi va “Ayollar daftari” joriy etilgani bo‘ldi. Bu shunchaki ro‘yxat emas, siniq ko‘ngillarni tiklash, yiqilganni suyash tizimidir. Bugungi kungacha qiynalgan minglab xotin-qiz bilan uchrashdim, dildan suhbatlashdim va har birining dardini o‘zimnikidek qabul qildim.

Bunga birgina misol — tumanimizning Bayot mahallasida istiqomat qiluvchi Xurshida Rahimovaning hayot yo‘li. Bu yoshgina ayolning turmush o‘rtog‘i ikkinchi guruh nogironi bo‘lib, mehnatga layoqatsiz, qaramog‘ida esa voyaga yetmagan ikki farzandi bor edi. U bilan ilk bor suhbatlashganimda oilada yolg‘iz boquvchi bo‘lgan bu ayolning nigohlarida adoqsiz o‘kinchni, nozikkina yelkasida esa ro‘zg‘orning zalvorli yukini ko‘rganman.

Lekin biz Xurshidani shunchaki “Ayollar daftari”ga ro‘yxatga olib, unga bir martalik moddiy yordam berish bilan cheklanib qolmadik. Dastlab o‘z ishini boshlashi uchun imtiyozli kredit ajratilishiga ko‘maklashdik va issiqxona ishi bo‘yicha kasb-hunarga o‘qitdik, hunarli qildik. Xurshidaning o‘zi ham tinim bilmay mehnat qildi, yerdan rizq undirish sirlarini o‘rgandi.

Uning g‘ayratini ko‘rib, 2023-yilga kelib faoliyatini yanada kengaytirishi uchun qo‘shimcha 29 million so‘m kredit ajratilishini ta’minladik. Natijada Bayot mahallasida haqiqiy mo‘’jiza sodir bo‘ldi. Ya’ni kechagina ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan ayol bugun mahalliy bozorimizga doimiy ravishda sarxil pomidor, bodring, bulg‘or qalampiri hamda sifatli nihol va ko‘chatlar yetkazib beruvchi katta tadbirkorga aylandi.

Hozir uning o‘rtacha yillik daromadi 2019-yildagidan uch barobar o‘sib, 50-60 million so‘mni tashkil etadi. Shu bilan birga, chorva boqishni yo‘lga qo‘ydi. Salohiyatini inobatga olib, Xurshidani mahalla fuqarolar yig‘iniga mahalla bankiri lavozimiga ham ishga joylashtirdik.

Mana, birgina ayol hayoti misolida islohotlarning amaliy natijasi! Kechagina davlatdan ko‘mak so‘ragan ayol bugun o‘zi mahalladoshlariga bank tizimi orqali yordam berib, jamiyatning faol a’zosiga aylandi. Tumanimizda bunday ayollarimiz juda ko‘p. Zero, bitta ayolning taqdiri o‘zgarsa, butun oila quvonadi, jamiyat yuksaladi.



Endi o‘zbek ayoli faqat ro‘zg‘or va oshxona bilan cheklanib qoladigan davrlar ortda qoldi. Xurshida kabi minglab opa-singillarimiz misolida ko‘rib turibmizki, bugun ayol siyosatchi, tadbirkor, rahbar va jamiyatning eng mustahkam ustunidir. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, biror ayol davlat e’tiboridan chetda qolmaydi.

Hozirgi yangilanishlar jarayonida xotin-qizlar hayoti qanchalik farovonlashib borayotganini o‘zim hokimlik qilayotgan Olot tumani misolida har kuni ko‘raman. Yangi maktablar, shinam tibbiyot maskanlari va yangi ish o‘rinlari — bularning barchasi aholining baxtli va xotirjam yashashi uchun qilinmoqda.

Menga berilgan bu nufuzli mukofot to‘xtab qolishga emas, aksincha, yangicha shiddat, yanada katta kuch va muhabbat bilan ishlashga undaydi.

Tumanimizning har bir fuqarosi o‘z oilamdek aziz. Biz hali mahallalarimizni bundan-da obod qilamiz, ba’zi bir hayot sinovlarida qiynalayotgan aholimizni qo‘llab-quvvatlashda davom etamiz. Ularning baxtli kunlari va farovon hayoti uchun tuman rahbari sifatida bor kuch-g‘ayratim, bilim va tajribamni sarflashdan aslo charchamayman.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

TARIXIY XIRMON — ILM-FAN, ISLOHOT VA ZAHMATLI MEHNAT SAMARASI

Boshlanishi 1-betda

Ushbu o‘zgarishlar paxtachilikning iqtisodiy va ijtimoiy mazmunini tubdan yangiladi. Endi asosiy maqsad ko‘proq maydonga paxta ekish emas, balki mavjud yer, suv va mehnat resurslaridan samarali foydalanib, yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulot yetishtirishdan iborat.

Prezidentimiz keltirgan raqamlar bu yo‘lning samarasini yaqqol ko‘rsatadi: o‘tgan davrda paxta hosildorligi 21 sentnerdan 56 sentnerga yetdi. Ya’ni 2,7 barobar o‘sishga erishildi.

Bu paxtachilikdagi islohotlarning eng muhim natijalaridan. Chunki hosildorlikning o‘sishi yerdan foydalanish samaradorligi, ilmiy yondashuv va agrotexnologik intizom kuchayganini anglatadi.

Ilm-fan yutuqlarini dalaga olib chiqish — asosiy vazifa

Bugun paxtachilikda erishilayotgan natijalarni ilm-fanni ishlab chiqarishga yaqinlashtirmay tasavvur etib bo‘lmaydi. Zero, so‘nggi yillarda seleksiya, genetika, biotexnologiya, o‘simlik fiziologiyasi, agrokimyo va tuproqshunoslik sohalaridagi ilmiy ishlanmalarni bevosita dala amaliyotiga joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ayni jarayonda Paxtachilik kengashi tashkil etilgani ham muhim ahamiyat kasb etdi. Kengash olimlar, fermerlar, klasterlar va soha mutaxassislari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ilmiy tavsiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish, yangi texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish va natijalarini tahlil qilish uchun amaliy maydonga aylanmoqda.

Biz uchun ilm-fan natijasi faqat ilmiy maqola yoki laboratoriyadagi tajriba bilan cheklanmasligi kerak. U fermer dalasida o‘zining amaliy samarasini ko‘rsatishi, hosildorlikni oshirishi, suv va resurslar sarfini kamaytirishi lozim.

Shu nuqtai nazardan, paxtachilikda noan’anaviy agrotexnologiyalarni sinash, raqamli ma’lumotlardan foydalanish, agrodronlar orqali ishlov berish va sun’iy intellekt imkoniyatlarini o‘rganish ishlari izchil davom ettirilmoqda.

Xalqaro ilm-fan hamjamiyatining O‘zbekiston paxtachiligidagi o‘zgarishlarga e’tibor qaratayotgani ham quvonarli. Jahon fanlar akademiyasi — TWAS nashrida e’lon qilingan “The science behind Uzbekistan’s cotton revolution” maqolasida ham mamlakatimizda paxtachilikni ilmiy asosda modernizatsiya qilish jarayoni xalqaro miqyosda tahlil qilindi.

Mazkur e’tirof zimmamizga yanada katta mas’uliyat yuklaydi: ilm-fanni ishlab chiqarish bilan bog‘lash, mahalliy olimlar salohiyatidan samarali foydalanish va ilg‘or xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirishni davom ettirishimiz zarur.

Seleksiya va yangi biotexnologik navlar — mo‘l hosil garovi

Prezidentimiz tabrigida bu yil ekish sxemalarining o‘zgartirilishi, ko‘chatlar sonining 2-3 barobar oshirilishi, ko‘sak qurti va gerbitsidlarga chidamli yangi biotexnologik navlarning joylashtirilishi alohida qayd etildi. Ayni omillar paxtachilikda seleksiya va urug‘chilikning naqadar muhimligini yana bir bor ko‘rsatdi.

Chunki yuqori hosil, avvalo, navning genetik salohiyatidan boshlanadi. Biroq yaxshi navning o‘zi yetarli emas. Uning imkoniyatlarini to‘liq namoyon qilish uchun maqbul ekish sxemasi, ko‘chat qalinligi, oziqlantirish, sug‘orish va o‘simlikni himoyalash tadbirlari o‘zaro uyg‘un bo‘lishi kerak.

Shu sababli mahalliy seleksiyani rivojlantirish, yangi navlarni yaratish va sinovdan o‘tkazish, xorijdagi ilmiy markazlar bilan hamkorlikni kengaytirishga e’tibor qaratyapmiz. Bunda xalqaro tajribani o‘rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish muhim. Xususan, paxta yetishtirishda

> **Xalqaro ilm-fan hamjamiyatining O‘zbekiston paxtachiligidagi o‘zgarishlarga e’tibor qaratayotgani ham quvonarli. Jahon fanlar akademiyasi — TWAS nashrida e’lon qilingan “The science behind Uzbekistan’s cotton revolution” maqolasida ham mamlakatimizda paxtachilikni ilmiy asosda modernizatsiya qilish jarayoni xalqaro miqyosda tahlil qilindi.**

Nuqtayi nazar



Ibrohim ABDURAHMONOV,
qishloq xo‘jaligi vaziri

ilg‘or mamlakatlarda qo‘llanayotgan ekish sxemalari, ko‘chat qalinligi, plyonka ostiga ekish, tomchilatib sug‘orish va boshqa texnologiyalarning samaradorligi o‘rganilib, ularning maqbul yechimlari amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Bu yil qariyb 400 ming gektar maydonda o‘rtacha hosildorlik 70 sentnerga yetgani, salkam 70 ming gektardan esa 100-110 sentnergacha hosil olingani ana shu ilmiy va texnologik yondashuvlarning amaliy natijasidir.

Agrotexnologik intizom — yuqori hosil

Paxtachilikda yuqori hosil olish birgina texnologiya yoki tadbirga bog‘liq emas. Bu — o‘zaro bog‘langan agrotexnik jarayonlarning o‘z vaqtida va to‘g‘ri bajarilishi natijasi.



Shu bois, Paxtachilik kengashi ishlab chiqarishda agrotexnologik intizomni kuchaytirish, fermerlarga ilmiy asoslangan tavsiyalarni yetkazish va paxta yetishtirishning muhim talablariga rioya etilishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratmoqda.

Paxtachilikdagi “8 ta qonun” tamoyili ham shu maqsadga xizmat qiladi. Uning mazmuni chigit ekishdan tortib, g‘o‘zaning rivojlanishi, oziqlanishi, himoyasi va hosilni yig‘ib olishgacha bo‘lgan barcha jarayonni ilmiy asosda tashkil etishdan iborat. Bunda har bir hududning tuproq-iqlim sharoiti, suv ta’minoti va nav xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi. Chunki bir hududda yuqori samara bergan agrotexnologiya boshqa hududda aynan shu natijani bermasligi mumkin.

Prezidentimiz qayd etgan mingga yaqin fermer xo‘jaligi va klasterning gektaridan 100 sentnerdan ortiq hosil olishi, 4000 dan ziyod fermerning 60-70 sentnerlik, 2500 nafarining esa 80 sentnerdan yuqori natijaga erishishi bu boradagi tizimli ishlarning ifodasidir.

Ayniqsa, Paxtakor tumanidagi Anorboy Eshmatov va Jarqo‘rg‘on tumanidagi Ulug‘bek So‘piyev kabi fermerlarning har gektardan 110 sentnerdan hosil olgani katta tajriba va mehnat samarasi. Bunday natijalarni o‘rganish, ommalashtirish va boshqa hududlarda ham qo‘llash muhim vazifamiz bo‘lib qoladi.

Hududlarning natijasi — umumiy taraqqiyot ko‘rsatkichi

Prezidentimiz tabrigida alohida viloyatlar, tumanlar va ilg‘or fermer xo‘jaliklarining natijalari e’tirof etilgani ham muhim ahamiyatga ega.

Jizzax, Xorazm, Buxoro, Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida o‘rtacha hosildorlikning 60 sentnerdan yuqori bo‘lishi, Qoraqalpog‘istonda esa o‘ta og‘ir ekologik sharoitga qaramay, hosildorlikning o‘tgan yillardagiga nisbatan 10-15 sentner oshirilib, 400 ming tonnadan ortiq xirmon bunyod etilgani alohida tahsinga loyiq. Bu natijalar paxtachilikda yagona yondashuv bilan birga har bir hududning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Qoraqalpog‘istondagi sho‘rlangan va suv ta’minoti murakkab maydonlar, Buxoro va Navoiyning quruq iqlimi, Sirdaryo va Jizzaxning sug‘oriladigan yerlari yoki Xorazmning tuproq sharoiti — bularning har biri alohida agrotexnologik yondashuvni talab qiladi.

Shuning uchun biz hududlardagi ilg‘or tajribalarni o‘rganish, yuqori hosildorlikka erishgan fermerlar bilan boshqa xo‘jaliklar o‘rtasida tajriba almashishni yanada kuchaytirishimiz zarur.

Mexanizatsiya — inson mehnatini yengillashtirish va samaradorlikni oshirish omili

Joriy yilgi natijalarda zamonaviy paxta terish mashinalarining o‘rni alohida. Yetishtirilgan hosilning 85 foizi 3000 dan ortiq paxta terish mashinasi yordamida 30-35 kunda yig‘ib olingani mexanizatsiyalashtirish borasidagi ishlar samarasini ko‘rsatadi. Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida terimni mexanizatsiyalashtirish darajasining 100 foizga yetgani ham muhim natijadir.

Mexanizatsiya faqat terim jarayonini tezlashtirish yoki qo‘l mehnatini kamaytirish emas. Bu, avvalo, inson mehnatini yengillashtirish, hosilni o‘z vaqtida yig‘ib olish, paxta sifatini saqlash va ishlab chiqarish xarajatini optimallashtirish demakdir.

Bugun paxtachilikda zamonaviy texnikadan foydalanish ko‘lamini kengaytirish, mexanizatorlar malakasini oshirish, texnika parkini yangilash va dalalarni mashina terimiga moslashtirish ishlari davom ettirilmoqda.

Bu boradagi islohotlar majburiy mehnatga barham berilganidan keyin yanada muhim ahamiyat kasb etdi. Endi hosilni yig‘ib olishda asosiy tayanchimiz — zamonaviy texnika, malakali mutaxassis va samarali tashkil etilgan ish jarayoni.

Raqamlashtirish va yangi texnologiyalar xarajatni kamaytirmoqda

Prezidentimiz tabrigida Paxtachilik kengashi faoliyati, olimlarning noan’anaviy texnologiyalarni qo‘llashi, raqamlashtirish va dronlardan foydalanish orqali sarf-xarajat ikki barobar kamaytirilgani alohida qayd etildi. Bu natija raqamli texnologiyalarning paxtachilikdagi amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Agrodronlar yordamida maydonlarni kuzatish, o‘simliklarning holatini baholash, ishlov berish jarayonlarini aniq tashkil etish va resurslardan maqsadli foydalanish imkoniyati kengaymoqda. Raqamli ma’lumotlar esa fermerga qarorlarni taxmin asosida emas, balki aniq ko‘rsatkichlarga tayanib qabul qilish imkonini beradi.

Kelgusida bu jarayonni sun’iy intellekt bilan uyg‘unlashtirish, dala holatini masofadan monitoring qilish, suv va ozuqa elementlariga ehtiyojni aniqlash kabi yo‘nalishlarni rivojlantirish muhim.

Moliyaviy mexanizmlar va fermer manfaatdorligi

Paxtachilikdagi tarixiy natijalarni ta’minlagan omillardan yana biri tarmoqda moliyaviy va iqtisodiy mexanizmlarning takomillashtirilganidir. Davlat ajratayotgan moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, to‘lov intizomini yaxshilash, subsidiyalash tizimini takomillashtirish va sug‘urta mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish fermerlar uchun muhim imkoniyatlar yaratdi.

Prezidentimiz tabrigida joriy yilda fermerlar paxta yetishtirishdan 13-14 trillion so‘m sof foyda olishi kutilayotgani qayd etildi. Bu ko‘rsatkich islohotlarning iqtisodiy mazmunini ochib beradi. Chunki agrar sohadagi har qanday o‘zgarishning yakuniy natijasi fermerning daromadi, xo‘jaligini rivojlantirish imkoniyati va qishloq aholisining farovonligida namoyon bo‘lishi kerak.

Biz uchun fermer faqat mahsulot yetishtiruvchi emas, balki agrar taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Uning mehnatdan manfaatdorligi, ertangi kunga ishonchi va ishlab chiqarishga investitsiya kiritish imkoniyati qanchalik yuqori bo‘lsa, tarmoqning barqarorligi ham shunchalik mustahkam bo‘ladi.

Xalqaro e’tirof va kelgusi marralar

Prezidentimiz tabrigida qishloq xo‘jaligi sohasida mehnat qilayotgan 3,5 milliondan ziyod insonga tayanish, ular uchun zarur sharoit va imkoniyatlarni yaratish davlat agrar siyosatining muhim yo‘nalishi ekani alohida e’tirof etildi.

Yaqinda Toshkentda Jahon paxta kuniga bag‘ishlab o‘tkazilgan xalqaro anjumanda 30 dan ortiq mamlakatdan kelgan olim va mutaxassislar O‘zbekistonda Jahon paxtachilik markazini tashkil etish tashabbusini ilgari surgani ham mamlakatimizdagi o‘zgarishlarga xalqaro qiziqish ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Ushbu taklifni faqat e’tirof sifatida emas, balki xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish, paxta seleksiyasi va agrotexnologiyalar sohasida yangi tadqiqotlarni yo‘lga qo‘yish, mintaqaviy bilim va tajriba almashinuvini kuchaytirish uchun imkoniyat sifatida ham baholashimiz kerak.

Kelgusi yil uchun belgilangan vazifalar ham aynan shu maqsadlarga xizmat qiladi. Serhosil urug‘lik navlaridan foydalanish, agrodronlar orqali ishlov berish, suv va energiya tejovchi texnologiyalarni kengaytirish, sun’iy intellekt imkoniyatlarini joriy etish orqali paxtaning o‘rtacha hosildorligini gektariga 65-70 sentnerga yetkazish maqsad qilingan.

Mazkur marraga erishish uchun fermerlar, klasterlar, olimlar, muhandislar va mutaxassislar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirishimiz zarur.

Ishonchim komilki, bu yilgi 5 million tonnadan ortiq xirmon paxtachilikdagi yakuniy marra emas. Aksincha, u ilm-fanga tayangan, zamonaviy texnologiyalar bilan qurollangan, suv va yer resurslaridan oqilona foydalanadigan, fermer manfaatdorligiga asoslangan yangi taraqqiyot bosqichining boshlanishidir.

Ushbu tarixiy natijaga hissa qo‘shgan barcha dehqon va fermerlarimiz, klaster xodimlari, olimlar, agronomlar, suvchilar, mexanizatorlar va soha mutaxassislarini yana bir bor samimiy tabriklayman.

Paxtachilikdagi bu g‘alaba — ilm-fan, mehnat va hamjihatlik g‘alabasi. Oldimizdagi yangi marralarga ham ana shu birdamlik va ishonch bilan yetib boramiz.



O‘Z ISHIMIZ — O‘Z G‘ALABAMIZ!

Yoxud paxtachilik sohasida YANGI O‘ZBEKISTON MO‘JIZASI qanday yaratilgani haqida ijtimoiy-siyosiy esse



Salim DONIYOROV,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist

Boshlanishi 1-betda

Erta kuzdan qaro qishgacha odamlarga to‘y qilishga ruxsat berilmasdi. Imi-jimida, hovlining bir chetiga qozon osib, to‘rtta odamni yig‘ib ko‘rishsinchi, g‘o‘ddaygan amaldorlar burnining bir chetiga o‘choq isi yetib borsa tamom, uyingizga kelib, qozon-pozoningizni ag‘darib tashlardi. Shu bilan qutilsangiz mayliku-ya, keyin ustingizdan jinoiy ish qo‘zg‘atilmasa bo‘ldi edi.

Har kuni kolxoz idorasida selektor bo‘lardi. Masala bitta — qaysi kolxoz yoki sovxoz paxta rejasini qancha foizga bajardi? Kunlik reja bajarildimi?

Televizorda viloyatlar kesimida kunlik hisobot berib borilardi. Ortda qolayotgan viloyatlar rahbarlari tonggacha so‘kish eshitib, dodini kimga aytishini bilmay, alamini oddiy odamlardan, o‘qituvchilar, norasida bolalardan olardi.

Har safar “Temir xotin” kinosini ko‘rganimizda yuragimiz ezilib ketadi. 40-50 kilolab paxta ortmoqlagan ayollar, egatlarda chirqirab yig‘lagan go‘daklar, paykal chetida tug‘ilgan chaqaloqlar, tut daraxti shoxiga osilgan belanchaklar, ular ustidan sepilgan kimyoviy dorilar... Bularning atom xurujidan nima farqi bor edi?!

Yaqin-yaqingacha shunday yashadik-ku. Ochig‘ini aytish kerak, hali-haligacha o‘sha kimyoviy dorilar millatimiz genofondiga o‘z ta’sirini o‘tkazib keladi. Paxta dalasida umri xazon bo‘lgan qishloq ayollarining hali-hamon dardi og‘ir. Ular bedavo dard orttirib olgan, o‘sha egatlarda katta bo‘lgan farzandlarimiz hamon sog‘lom emas.

Xullas, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, **u kunlardagi paxtachilik el-yurtimizga manfaat emas, balki azob-uqubat va oxir-oqibatda “o‘zbek ishi” degan quruq tuhmat olib keldi.**

Hasratlarimni shu yerda to‘xtatsammi desam, “o‘zbek ishi”dan bir tirik hikoya yodimga tushib qoldi.

Payariqda sovxoz paxta topshiruvchisi bo‘lib ishlagan Abdurasul Shodiyevni 1985-yilda paxta qo‘shib yozishda ayblab, 10 yilga nohaq qamab yuborishadi.

Abdurasul akaning o‘g‘li Muzaffar Shodiyev biz bilan deyarli tengdosh edi. U o‘sha suronli davr, otasiz o‘tgan yillar qayg‘usini shunday eslaydi:

“Butun bolalik xotiralarim paxta bilan bog‘liq. Bo‘yim g‘o‘zaga yetar-yetmay, avvaliga tengqurlarim bilan paxta dalasiga suv, non, ovqat tashidik, ilg‘or “chekanka”chi bo‘ldik. Ketmon bilan bo‘ylashganimizdan boshlab chopiq va terim ham bolaligimizning bir qismiga aylandi.

Do‘stlarim ba’zan o‘sha paytlardagi qiziq holatlar, voqealarni eslab turadi. Menda esa bu bilan bog‘liq alamli xotira, unutilmas iztirob bor. Chunki paxtadan juda erta ko‘nglim qolgan.

O‘shanda, adashmasam 5-sinfda o‘qirdim. Hamma yoqda “Davlatga paxta topshirish rejasini muddatidan oldin bajaramiz!”, “Plan — qonun, uni bajarish — burch!” kabi yozuvlar bo‘lardi. Endi o‘ylasam, o‘sha paytlarda bola qalbim bilan har bir inson umrining mazmunini yaxshi paxtakor, dehqon yoki mexanizator bo‘lishda deb bilganman. Aslida, aksariyatimiz shunday o‘ylardik va shunga intilardik.

1985-yil, dekabr. Bola-o‘quvchimiz. Aslida, muallimu o‘quvchilar endigina paxta dalasidan sinf partasiga qaytgan kezlar. Uyga borsam, motamsaro muhit. Buning sababini yurak yutib so‘raydigan jur’at, holatni idrok etadigan aql qayda deysiz? Axir 12 yosh bola edim.

Keyinroq bildim: otamni paxta qo‘shib yozishda ayblab, qamoqqa olishibdi. Uch aka-opam, olti uka-singlim — o‘n jo‘jabirday jon onam bilan xasratu alam, mashaqqatda qoldik. Ayniqsa, onam sho‘rlikka qiyin bo‘lgan: qo‘lida bir yoshli chaqaloq, bu yoqda onaning qo‘liga qaragan o‘nta jon. Bularga-ku chidasa bo‘lar, oddiy paxta topshiruvchisi — otamning o‘zi borini bergan paxta uchun o‘n yilga qamalgani barchamizga alam qilardi.

Shukrki, mustaqillik sharofati bilan otam oqlandi, aybsizligi tan olindi, biz uchun adolat qaror topdi. Lekin otam bunga to‘liq qo‘shilmasdi. Chunki paxta yakkahokimligi va unga ommaviy safarbarlikni juda noto‘g‘ri ish deb hisoblardi, hech narsa insondan aziz emas, derdi.

Bu gaplarning mag‘zini endi tushunyapman. Rahmatli otam aytgan adolatni — majburiy mehnatsiz, ommaviy safarbarliksiz, majlisbozligu dabdabali da’vatlarsiz ham paxtadan rekord — 5 million tonna xirmon ko‘tarish mumkinligini, shukrki, bizlar ko‘rdik. Hozir farzandlarimizning ta’lim olish, rivojlangan davlatlardagi tengdoshlaridan o‘zishdan boshqa o‘yi, tashvishi yo‘q.

Otam rahmatli istiqlolni ko‘rdi, nomi oqlanib, yuzi yorug‘ bo‘ldi. Shukrona uchun, taskin uchun otam kabi taqdir egalariga bundan ortiq baxt yo‘q nazarimda. Lekin yuragimning tub-tubida, xayolimning bir chetida katta armon bor: qaniydi otam inson aziz bo‘lgan, qadrini ulug‘lash davlat siyosatining maqsadu muddaosiga aylangan bugungi zamonni, Prezidenti xalqining farovonligi uchun oromini unutgan Yangi O‘zbekistonni bir ko‘rsa edi...”.

Afsuski, biz bunday taqdirlarni “o‘zbek ishi”da ko‘plab uchratamiz. Ammo, eng ayanchlisi, biz mustaqillikdan keyin ham yana uzoq yillar paxtaga qaram bo‘lib, majburiy mehnat qurshovida yashadik.

So‘z aytishga, xalqning dardini bayon qilishga ustasi baribir ustada. Hozir dardimizni uzoq dasturxon qildik. Qarangki, unutilmas ardoqli shoirimiz Abdulla Oripov bu gaplarimizning hammasini umrining so‘nggi kunlarida bitta she’riga sig‘dirib ketgan ekan.

Har ko‘chada ming mirshab,
Har go‘shada avaxta,
Haq deganning og‘zi berk,
Qon yutar laxta-laxta.
O‘zi-ku paxta ekkan,
Yostig‘i bo‘ldi taxta,
Yovuzlarning qo‘lida
Gulday vatanim qoldi,
Boshida panohi yo‘q
Tulday vatanim qoldi.

(05.10.2015-yil. AQSH, Xyuston)

2017-YIL SENTABR TONGI. QUVONCHNING KELISHI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil sentabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so‘zlab, O‘zbekistonda Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlikda bolalar mehnati va majburiy mehnatga barham berish bo‘yicha ta’sirchan choralar ko‘rilayotganini aytgan edi.

Toleimiz kulgan ekan, **O‘Z PREZIDENTIMIZ**ning qat’iy siyosiy irodasi bilan bir kunda majburiy mehnatga barham berildi. Bitta aytildi va ortga qaytilmadi. Shu-shu o‘qituvchilar ham, o‘quvchilar ham, boshqa soha xodimlari ham paxta ishiga majburiy olib ketishdan qutuldi.

Oradan ko‘p yil o‘tmadi. Biz paxta terimi mavsumi mashaqqatlari, g‘urbatlarini unutib yuborgan ekanmiz. Shu yil sentyabr oyida bir guruh hamkasblarimiz bilan Samarqandga xizmat safariga bordik. Yangiyo‘l, Chinozlardan o‘tar ekanmiz yo‘l chetidagi dalalarda mashinalar paxta terayotganini ko‘rib, beixtiyor hammamiz birvarakayiga “E, paxta terish boshlandimi”, deb yubordik.

Qarangga. Xalqimizni 100 yillar davomida azobu uqubatda ushlab kelgan paxta terish mavsumi boshlanibdiyu, biror joyda bu haqda gap yo‘q. Televideniye jim, matbuot gapirmaydi, maktab ishlayapti, o‘qituvchilar darsda, o‘quvchilar sinfda... Hech kim hech kimni bezovta qilgani yo‘q. “Ha, bo‘lar ekan-ku” deymiz sheriklar bir-birimizga mamnun qarab.

Unda paxtani kim teryapti, unda paxta kimga kerak? Endi paxtaning o‘z egasi bor. Paxta o‘z egalariga — manfaatdorlar ixtiyoriga topshirildi. Ya’ni qanday? Avvalo, dehqon va fermerlar, klasterlar, umuman, dalada ishlayotgan har bir insonning o‘z mehnatidan manfaatdorligi ta’minlandi. Fermerlar paxta yetishtiradi, uni bozor qiymatida klasterga sotadi, o‘z navbatida, klaster egalari xomashyoni tayyor mahsulot ko‘rinishiga olib kelib, istasa ichki bozorga, istasa chet elga pullaydi. Mana shu manfaatdorlik zanjiri bugungi yutuqlarimiz asosidir. Bunda faqat paxta egasining foydasi emas, butun el, shu vatanning manfaati jamlangan!

BUGUN YETIB KELGAN MANZILDA ERTAGA TO‘XTAB QOLMAYMIZ



Yana takror bo‘lsa-da, aytaman, yaqin yillargacha sentyabr oyi kelishi bilan paxta mavsumi boshlanardi. Biz uchun hayot mazmuni ham, tiriklik ramzi ham paxta edi. Har kuni maktab direktorlari fermerdan ham avval tuman hokimligiga borib turardi. Hozir birorta tuman hokimi yoki undan yuqoridagi rahbarlar “paxta nima bo‘ldi ekan” deb bosh qotirmaydi. Shular haqida o‘ylayapmanu, Prezidentimizning kuz oylaridagi ish faoliyati ko‘z oldimdan o‘tyapti. Birgina oktyabr oyining o‘zida Turkmaniston, Ozarbayjon va Turkiyadagi nufuzli tadbirlarda ishtirok etdi. Qashqadaryo va Samarqand viloyatlariga tashrif buyurdi, Toshkentning o‘zida qancha tadbirlar o‘tkazdi. Kechadan buyon Ostona shahrida bo‘lib turibdi.

Umuman, Prezidentimiz faoliyatida, qishloq xo‘jaligiga doir o‘tkazgan yig‘ilishlarida biron marta paxta nima bo‘ldi degan savol o‘rtaga tashlangani yo‘q. Milliy matbuotimiz vatanimizning xalqaro darajadagi yutuqlari, mamlakatimizdagi iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar haqida gapirmoqda. Bugun shuncha tonna paxta terildi degan hisobotlar esa yodimizdan ham chiqib ketdi. Shu o‘rinda kechagi kunimizdan hikoya qiladigan bir voqea yodga tushdi.

Bir necha yil avval muhim faktni axtarib, O‘zbekiston Milliy kutubxonasidagi tarixiy gazetalarning 1960-1980-yillarda chop etilgan sonlarini birma-bir varaqladim. Ana shu yigirma yillik solnomadagi bir manzara diqqatimni tortdi. Unda sentabr oyining boshida maktablarda o‘qish boshlangani haqida xabar chiqqan. Undan keyingi kunlarda esa birinchi sahifada paxta dalasidan fotolavha va unga doir maqolalar o‘rin olgan. E’tiborlisi, gazetaning har bir sonida paxta mavsumi, “oq oltin”ni chanog‘ida qoldirmay, qishgacha yig‘ib-terib olishga da’vat qilingan. Achinarlisi, bunday chiqishlar 30-dekabrgacha davom etgan!

Bu maqolalarni o‘qisangiz, xalqimiz qanchalik mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tganini teran anglaysiz. O‘shanda asosiy maqsadim qolib paxtaga doir mavzularga qiziqib ketganim hamon esimda. Gazetada 1970-yillarda chop etilgan kichkina maktub esa hamon yuragimni qo‘rg‘oshinday bosib turadi. Unda olis bir viloyatdagi 7- yoki 8-sinf o‘quvchisi maktabdoshlari haqida so‘z yuritadi. U avval o‘zi markazga sadoqatini izhor etib, javlon urib paxta terayotganini aytadi. Faol terimchilarni nomma-nom sanaydi va falonchi yomon terimchi ekanini aytadi. Maktubda yozilishicha, o‘sha falonchi paxtani chanog‘ida qoldirib terar ekan. Kamiga shiyponga olib borguncha to‘kib, sochib ketarmish. Ha, qo‘rquv asosida ushlab turilgan jamiyatda mana shunday illatlar ham bemalol matbuot orqali namoyon etilavergan ekan!

Aynan o‘sha yillarda paxta sabab xalqimiz iqtisodiy-ijtimoiy, ekologik jihatlardan katta yo‘qotishlar berdi. Masalan, Orol suvining katta qismi paxta dalalariga boshqarildi. Yuqorida ham eslaganimizdek, hosildorlikni oshirish, uni vaqtida yig‘ib-terib olish vaji bilan xalq tepasidan zaharli dori sepildi. Suv, tuproq orqali butun tabiat zararlandi. Yuqumli kasalliklar, o‘pka, yurak-qon tomir xastaliklari avj oldi. Yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo‘lgan insonlarning umri ana shu paxta dalasida behuda sovrildi. Hatto bolalar chillasi chiqishi bilan paxta dalasi boshida qurilgan shiyponlardagi bog‘chalarga berilardi. Ular yura boshlashi bilan egat oralab ketardi...

Yangi O‘zbekiston tarixida ilk bor 5 million tonnadan ziyod paxta xirmoni bunyod etildi. Bu juda katta marra. U shunchaki, iqtisodiy ko‘rsatkich emas, tarixiy evrilishdir!

Bir vaqtlar tabiiy resurslarimizning katta qismini paxtaga sarflab ham zarar ko‘rdik. Endi ko‘rsatkichlar butunlay boshqa. Iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq qiyinchiliklarga qaramay, olis Qoraqalpog‘istonda ham, vodiy va vohalarimizda ham xirmon cho‘g‘i baland bo‘ldi.

Bu o‘z-o‘zidan bo‘lib qolgani yo‘q. Keling, shu o‘rinda sal ilmiyroq til bilan bo‘lsa-da, bugungi yutug‘imizning asoslarini bir qadar sharhlashga urinamiz.

Birinchidan, paxtachilikda iqtisodiy manfaatdorlik yangi bosqichga ko‘tarildi. Aynan shu jihat sohadagi islohotlarning lokomotivi deyish mumkin. Negaki moddiy manfaatdorlik yaxshi bo‘lgan joyda samaradorlik yaxshilanadi. Ishlar o‘z-o‘zidan yurib ketaveradi. Buning uchun maxsus shtab tashkil etish, xalqni, ayniqsa, bolalarni majburiy mehnatga jalb etish shart emas!

Mana fakt: joriy yilda fermerlarning paxtadan 13-14 trillion so‘m sof foyda olishi kutilyapti. Fermer shuncha foyda ko‘rgandan so‘ng hech ikkilanmay dori sepishga dron, paxta terishga mashina sotib oladi-da. Bunday natijaga erishish uchun esa tinimsiz mehnat bilan birga siyosiy iroda ham kerak bo‘ldi. Shu bois, sohada tub iqtisodiy islohotlar o‘tkazildi. Xususan, paxtani ekishdan tortib, undan tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo‘lgan jarayonni o‘z ichiga olgan xususiy klasterlar tizimi yaratildi.

“Qashqadaryo” erkin iqtisodiy zonasidagi “Sulton Tex Group” to‘qimachilik klasteri misolida ana shu islohotlar natijasini ko‘rish mumkin. Mazkur klasterni tom ma’noda yangi O‘zbekistondagi islohotlarning kichik namunasi deb o‘ylayman. Chunki klasterda paxta ekishdan toki uni tayyor mahsulot qilib sotishgacha bo‘lgan jarayon qamrab olingan. Klasterdagi ishlar to‘liq ilmiy asosda, zamonaviy yechimlar orqali tashkil etilgan. Deylik, bu yerda ishlab chiqarishda foydalanilgan suvning 95 foizdan ko‘pi tozalanib, qaytadan ishlab chiqarishga yuboriladi. Fabrika binosining tomi va devorlariga esa quyosh paneli o‘rnatilgan. Ular ekologik toza quvvat olishni ta’minlaydi. Fabrikaga esa eng so‘nggi texnologiya asosida ishlaydigan dastgohlar turli rivojlangan davlatlardan olib kelingan. Natijada yiliga 20 ming tonna mato ishlab chiqarib, bo‘yash imkonini beradigan liniyalar ishlayapti. Fabrikada 840 kishi ishli bo‘lgan.

Bu birgina misol. Mamlakatimizda bunga o‘xshash paxtani qayta ishlashni yo‘lga qo‘ygan tadbirkorlar talaygina. Ana shunday iqtisodiy model tufayli mamlakatimizda paxtani qayta ishlash quvvati keskin oshib boryapti. O‘zbekiston paxta xomashyosini eksport qiluvchi davlatdan yuqori qo‘shimcha qiymatga ega tayyor to‘qimachilik mahsulotlari eksport qiladigan mamlakatga aylandi.

Shu o‘rinda yana bir hayotiy voqea yodga tushdi. Futbol bo‘yicha 2026-yilgi Jahon chempionati AQSHda bo‘lib o‘tdi. Uni tomosha qilishga borgan yurtdoshlarimizdan biri okean ortidagi nomdor brenddagi liboslar sotiladigan do‘konga kiradi. O‘ziga yoqqan kiyimni tanlaydi. Sifati va bichimi juda ma’qul kelgani uchun narxi qimmat bo‘lsa ham uni sotib olmoqchi bo‘ladi. To‘lov qilish uchun kelayotganida qarasa, u O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan ekan. Shu tariqa AQSHdagi do‘kondan quruq qo‘l bilan chiqib, xuddi shunday libosni Toshkentdan xarid qiladi. **O‘z yurtim, O‘z paxtam, O‘z ishlab chiqaruvchim degani bu!** Bir so‘m bo‘lsa ham shu vatanda sarflab, shu elga naf keltirish degani bu, yoronlar!

Yana bir muhim jihat. Paxtachilikda moliyalashtirish va subsidiyalash tizimi yangilandi. Xususan, Prezidentimizning 2020-yil 6-martdagi qarori bilan bir qancha muhim islohotlar amalga oshirildi. Masalan, paxta xomashyosini yetishtirishda davlat buyurtmasi bekor qilindi. Uning xarid narxini belgilash amaliyotidan voz kechildi. Ya’ni fermer o‘z paxtasiga o‘zi egalik qiladigan bo‘ldi. O‘zi belgilagan narxda paxtasini sotadi. Ana shu manfaatdorligi bois, paxtani o‘z vaqtida yig‘ib-terib oladi. Sodda qilib aytganda, paxta terim vaqti va uni yakunlashni o‘zi belgilaydi.

Shu o‘rinda yaqin o‘tmishimizdan navbatdagi bir lavhani keltirsam. Bir safar viloyatdagi tanish fermerlardan biri yordam so‘radi. Hokim uning yerini tortib olmoqchi ekan. Sababini so‘rab yig‘lashni ham, kulishni ham bilmay qoldim. Fermer paxtasini to‘liq terib oladi. Belgilangan rejani 110 foizga bajaradi. So‘ng dalada qip-qizil bo‘lib g‘o‘zapoya qoladi. Tag‘in ko‘zdan pana joy degan ilinjda g‘o‘zapoyani yig‘ishtirib, o‘rniga g‘alla ekishga kirishadi. Shu payt hokimiyat bu ishdan xabar topib, fermerga tahdid qiladi. Bir kecha ichki ishlarning zax xonasini ko‘rib kelgach, ishni “yopish” uchun tanish izlashga tushadi. Bu nari borsa 15-20 yil avvalgi gap. Hozir birovga aytsangiz ishonmaydi. Lekin o‘sha paytda fermer qaysi dalasiga qanday navdagi paxta ekishigacha qat’iy belgilab berilardi. Achinarlisi, bunday topshiriqlar ilmiy asosga emas, qandaydir yopiq topshiriqlarga asosan bajarilardi.

Ikkinchidan, sohaga zamonaviy texnologiyalar jadal kirib keldi. Shu orqali paxtachilikda yuqori natijalarga erishdik. Avvalo, paxtachilikda ilm-fan yutuqlarini keng joriy etish boshlandi. Yangi biotexnologik navlar yaratildi, olib kelindi. Ekish sxemalari takomillashdi. Soha raqamlashdi. Masalan, joriy yil boshida birgina Surxondaryo viloyatida “Shinjon” usulida paxta yetishtiradigan 155 ta fermer 14 ming 950 gektarda tomchilatib sug‘orish texnologiyasini o‘rnatgan. Bu sohani raqamlashtirish borasidagi muhim fakt. Chunki tomchilatib sug‘orish tizimlari o‘rnatilgan dalalarda tuproqning namligini o‘lchaydigan maxsus smart-datchiklar bor. Ular tuproq qurigani haqida markaziy kompyuter yoki fermerning telefoniga xabar yuboradi. Suv avtomatik tarzda ochiladi. Bu suv sarfini ikki barobargacha kamaytiradi. Mana raqamlashtirishning samarasi qayerda!

“E-Agro” va raqamli xaritalar tizimi ham bu boradagi samarali ishlardan biri. Unga ko‘ra, har bir paxta maydonining raqamli pasporti yaratilgan. Unda yerning tarkibi, oldingi yillarda qancha hosil berilgani, mineral o‘g‘itlar balansi raqamli bazada saqlanadi. Bundan tashqari, paxta oldi-sotdisi, shartnomalar tuzish va subsidiyalar ajratish jarayonlari to‘liq elektronlashtirildi. Inson omili kamaytirilib, shaffof elektron hisobvaraq-faktura tizimi yo‘lga qo‘yildi.

O‘rgilib ketay, hatto paxtachilikda dronlardan foydalanish kengaydi. Dron yordamida mineral o‘g‘it va mikroelementlar sepilyapti. Uning foydasi shundaki, traktorday g‘o‘za tuplarini bosib, nobud qilmaydi. Ko‘sak qurti, shira yoki qandala tushgan hududlar dronlar yordamida tepadan aniqlanadi. Kimyoviy vositalar faqat kasallangan o‘choqlarning o‘zigagina sepiladi. Bu zaharli ximikatlar va xarajatlarni 30-40 foizgacha tejaydi.

Uchinchidan, keyingi yillarda chigit ekiladigan maydonlar 38 foizga qisqartirildi. Shunga mutanosib ravishda o‘rtacha hosildorlik 2,7 karra o‘sib, gektariga 21 sentnerdan 56 sentnerga yetdi. Joriy yilda qariyb 400 ming gektarda o‘rtacha 70 sentner, salkam 70 ming gektarda esa 100-110 sentnergacha hosil olindi. Suv tejovchi texnologiyalar hisobiga suv sarfi 1990-yillarga nisbatan ikki karra kamaydi. Yana bir muhim jihat. Paxta yig‘im-terimida mexanizatsiyalashtirish ko‘lami kengaydi. Joriy yilda hosilning 85 foizi 3 mingdan ortiq paxta terish mashinalari yordamida 30-35 kunda yig‘ib olindi. Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida mexanizatsiyalashtirish darajasi 100 foizga yetkazildi. Paxtani mashinada terish xalqimizning orzusi edi. Buni atoqli yozuvchimiz Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asarida ham ko‘rishimiz mumkin.

“Men qaytib kelaman.

Yetti iqlimdan bo‘lsa-da, qaytib kelaman.

Ana shunda paxtamni cho‘tkali-cho‘tkali mashina bilan yig‘ib-terib olaman.

Mashina bilan bir oralaboq terib olaman. Boshqa qaytib dala oralamayman”, deyiladi armon va og‘riqlarga to‘la asarda.

Afsuski, 1986-yildan toki 1991-yilgacha bo‘lgan vaqtda bitilgan ushbu asar ham uzoq yillar “ko‘zdan panada” tutildi. Sababi biz hamon paxtani qo‘lda terayotgan edik.

O‘sha yillarda Sirdaryo desak, ko‘z oldimizga beixtiyor paxta dalasi kelardi. Negaki talaba, o‘qituvchi va davlat xizmatchilarining aksariyati paxta mavsumini Sirdaryo dalalarida o‘tkazardi. Bugun xalq dardini yuragidan o‘tkazib yozgan ijodkorlarimiz orzusi ushalib, Sirdaryoda paxta 100 foiz mashinada terib olindi.

Mamlakat taraqqiyotidagi asosiy belgilardan biri turli sohalardagi ehtiyojlarini o‘zi qoplay olishida ham ko‘rinadi. Shu ma’noda, yangi O‘zbekistondagi o‘sish sur’atini yurtimizda sanoatning rivojlanishi bilan belgilasak ham bo‘ladi.

Prezidentimizning Qashqadaryo viloyatiga tashrifini kuzatib turib ko‘nglimdan shunday o‘ylar o‘tdi. Ayniqsa, Qarshi shahridagi “FM World” korxonasining “Nasaf” brendi ostida besh xil rusumdagi traktor yig‘ayotgani haqidagi xabardan cheksiz quvonch tuydim. O‘zingiz o‘ylang, bir paytlar zamonaviy paxta terish mashinalari ishlab chiqarish niyatida olis Chin yurtidan Qashqadaryoga sarmoyador kelishiga birov ishonarmidi?!

Prezidentimiz O‘zbekiston dehqon va fermerlari hamda barcha qishloq xo‘jaligi xodimlariga yo‘llagan tabrigida **“O‘z” degan ezgu g‘oyamiz zamirida mujassam bo‘lgan o‘z ishimiz, o‘z so‘zimiz, o‘z g‘alabamizga ishonch ruhi bilan olg‘a qarab borishdan hech qachon to‘xtamaymiz!”,** deya ta’kidladi.

Ha, yangi O‘zbekiston baland marralarni ko‘zlab katta yo‘lga chiqqan karvon. U bugun yetib kelgan manzilda ertaga to‘xtab qolmaydi. Doim olg‘a intiladi. Paxtachilikda ham yuqori hosildorlik va texnologik yangilanishlar izchil davom ettiriladi. Xususan, 2027-yilda serhosil urug‘lik navlari, agrodronlar, suv va energiya tejovchi texnologiyalar hamda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish orqali paxtadan o‘rtacha hosildorlikni 65-70 sentnerga yetkazish ko‘zda tutilmoqda.

Yodimda, o‘tgan yili “Yangi O‘zbekiston” gazetamizda viloyatlardagi paxta hosili va natijalar haqida maqolalar berildi. Ular orasida paxtadan gektariga 70 sentnerdan hosil olingani haqida ham xabar bor edi. Ishongim kelmadi. Oldimizga qo‘yilgan muhim vazifa — doim xolis va haqqoniy ma’lumot tarqatish. Shu bois, ushbu raqamni jiddiy tekshirdik. Bu ayni haqiqat edi. O‘shanda kutubxonada tarixga qaytgan, eski gazetalar taxlami aro bitilgan taqdirlar yana bir karra ko‘z o‘ngimga kelgandi. Shu haqida o‘ylasam, meni hamon bir savol qiynaydi, maktabdoshi yomonlagan falonchining taqdiri nima bo‘ldi ekan? Hozir u (yoshi ham yetmishni qoralab qolgandir) yangi O‘zbekiston erishgan tarixiy marra haqida eshitib, ko‘nglidan qanday o‘ylar kechyapti? Gazetaga maktub yozgan o‘sha faol terimchi o‘quvchining qalbida nima gaplar o‘tmoqda?

Kimdir bu kechagi kun, shunday ekan, bunday og‘ir savollar ne uchun deyishi ham mumkin. O‘tmishni unutishga haqqimiz yo‘q. Chunki tarix insoniyatning eng katta muallimidir!

U xatolardan to‘g‘ri saboq olib, bugunga shukrona bilan yashashni o‘rgatadi. Shu bois, paxtada erishilgan yutuqni faqat iqtisodiy ko‘rsatkich bilan belgilab bo‘lmaydi. Ayni qarash esa **yangi O‘zbekiston mo‘jizasi** deb atalayotgan tarixiy yutuqning mohiyatini anglashga undaydi. Bunday anglamlar hammamizga ko‘p-ko‘p nasib etaversin.

2026-yil 6-noyabr, 230-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

YANGI O‘ZBEKISTON

Ma’lumotlarga ko‘ra, yil boshidan buyon 1 million 116 ming fuqaro xorijdan qaytgan. Yil yakuniga qadar ularning 250 ming nafariga munosib ish topishga ko‘maklashish vazifasi qo‘yildi.



XORIJDAGI FUQAROLARIMIZ HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDA ENG MUHIM MEZON

ularning qonunlarda belgilangan kafolatlardan foydalana olishidir



Feruza ESHMATOVA,
Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman)

Bugun dunyoda 168 million kishi xorijiy migratsiyada. Mamlakatimizda ham chet elda ishlash istagidagi fuqarolar bor, boshqa davlatlarda esa ishchi kuchiga ehtiyoj yuqori. Ushbu ikki imkoniyatni o‘zaro bog‘lash soha mutasaddilari va hududlar rahbarlari oldida turgan asosiy vazifa bo‘lib qolmoqda.

Bundan bir necha yillar oldin ham migrantlarga ikkinchi darajali odamlar, hatto “ishyoqmas”, “dangasa” deb qarash urfga kirgandi. Ularga ish topishda ko‘maklashish, xorijda munosib mehnat sharoiti yaratish, kafolatlangan huquqlarini va oilasini himoya qilish haqida o‘ylash hech kimning xayoliga kelmagan.

So‘nggi yillarda tartibli mehnat migratsiyasiga munosabat tubdan o‘zgardi. Mehnat migrantlari bilan muloqot o‘rnatildi, ularning muammo va ehtiyojlarini o‘rganish hamda hal qilish bo‘yicha yangi tizim joriy qilindi.

Bu fuqarolarimizning chet elda ishlashi uchun sharoitlar yaratish, haq-huquqlarini himoya qilish, kafolatli mehnat bozori bilan ta’minlash, yurtimizga qaytib kelgandan keyingi taqdiriga befarq bo‘lmaslik kabi sa’y-harakatlarda namoyon bo‘ladi.

Eng muhimi, xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimi doirasida mehnat migratsiyasi geografiyasini kengaytirish, kasb-hunarga va chet tillarga o‘qitish orqali fuqarolarning xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirishiga ko‘maklashish, huquqiy va moddiy yordam ko‘rsatish, xorijdan qaytgan fuqarolar bandligini ta’minlash borasida samarali ishlar qilindi.

So‘nggi yillarda xorijda ishlayotgan yurtdoshlarimiz va oilasini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan imtiyozlar ko‘lami kengaydi, qonuniy migratsiyani ta’minlash, xorijdagi vatandoshlarimizni qo‘llab-quvvatlashning huquqiy asoslari takomillashtirildi.

Ilgari bu yo‘nalishda 3 ta davlat bilan ishlangan bo‘lsa, hozir ularning soni 27 taga yetdi. Hamkorlik qilayotgan yirik xorijlik ish beruvchilar qariyb 400 taga ko‘paydi. Chet elda ishlayotgan yurtdoshlarimiz soni o‘n yilda ikki baravar kamaygan bo‘lsa-da, ularning oilalariga yuborayotgan mablag‘i to‘rt karra oshdi.

Asosiysi, mazkur masala davlatimizning doimiy diqqat e’tiborida. Jumladan, joriy yilning 2-noyabr kuni mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda ham bu borada vazifalar belgilanib, qator rag‘bat va imtiyozlar e’lon qilindi.

“Chet elda ishlayotgan har bir yurtdoshimiz — oilasining rizqi, farzandlari kelajagi uchun tinimsiz mehnat qilayotgan haqiqiy mard insonlar. Ular ham bizning fuqarolarimiz, bizning farzandlarimiz!” dedi yig‘ilishda Prezidentimiz. Bu esa yangi O‘zbekistonda “Inson qadri uchun” ezgu g‘oyasining amaldagi ifodasidir.

Inson xorijga ishlashga ketganda uning huquqlari mamlakat chegarasida qolib ketmasligi kerak. U qayerda mehnat qilmasin, xavfsiz sharoitda ishlashi, mehnatiga yarasha haq olishi, sha’ni va qadr-qimmati hurmat qilinishi hamda qiyin vaziyatda huquqiy himoyadan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim.

Mehnat migratsiyasi haqida so‘z yuritilganda odatda xorijda ishlayotgan fuqarolar soni, ular yuborayotgan pul mablag‘lari va ish o‘rinlari haqidagi raqamlarga e’tibor qaratiladi. Albatta, ular muhim ko‘rsatkichlar bo‘lsa-da, inson huquqlari nuqtai nazaridan yana bir mezon bor: xorijda mehnat qilayotgan fuqaro o‘zini qanchalik xavfsiz va himoyalangan his qilmoqda?

Davlatimiz rahbari tomonidan oilasi farovonligi va farzandlari kelajagi uchun Vatanidan olisda mehnat qilayotgan yurtdoshlarimizning fidoyiligi e’tirof etilib, ular qayerda bo‘lmasin, davlatning qo‘llab-quvvatlovini his qilishi zarurligi ta’kidlangani insonparvarlik siyosati mohiyatini yana bir bor yaqqol namoyon etdi.

Yig‘ilishda mehnat migratsiyasini faqat xorijda ish topish imkoniyati emas, balki fuqaroni kasbga tayyorlash, qonuniy ishga joylashtirish, huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy kafolatlarini ta’minlash va Vatanga qaytgach, munosib mehnat faoliyatini davom ettirishiga ko‘maklashishni qamrab oladigan yaxlit tizim sifatida rivojlantirish vazifalari belgilandi.

Inson qadri uchun



Bu yondashuvning huquqiy asosi Konstitutsiyamizda ham mustahkamlab qo‘yilgan. Xususan, unda O‘zbekiston hududida ham, uning tashqarisida ham o‘z fuqarolarini himoya qilish va ularga homiylik ko‘rsatish kafolatlangan, har kim munosib mehnat qilishi, xavfsiz mehnat sharoitlarida ishlashi va adolatli haq olishi huquqi belgilangan.

Demak, xorijdagi fuqarolarimiz huquqlarini himoya qilish nafaqat ijtimoiy mas’uliyat, balki konstitutsiyaviy ahamiyatga ega vazifadir.

Migratsiyaga tayyorgarlik — huquqiy himoyaning birinchi bosqichi

Yig‘ilishda fuqarolarni xorijiy tillar va kasblarga maqsadli o‘qitish, aniq ish o‘rinlariga tayyorlash masalalariga katta e’tibor qaratildi. Bu bejiz emas. Chunki kasbiy malaka va til bilish insonga nafaqat yuqori daromad topish, balki o‘z huquqlarini anglash, ish beruvchi bilan munosabatlarda o‘z manfaatlarini himoya qilish imkonini ham beradi.

Shu ma’noda, hududlarda migratsiya markazlarini tashkil etish, texnikumlarda xorijiy ish beruvchilar talabiga muvofiq kadrlar tayyorlash, til o‘rgatish va malaka sertifikatlarini olish imkoniyatlarini kengaytirishga oid vazifalar muhim ahamiyatga ega.

Biroq kasbiy tayyorgarlik huquqiy xabardorlik bilan birga kechishi zarur. Xorijga yo‘l olayotgan har bir fuqaro mehnat shartnomasining mazmuni, ish vaqti, ish haqi, tibbiy sug‘urta, yashash sharoitlari, shuningdek, huquqlari buzilganda murojaat qilishi mumkin bo‘lgan vakolatli tashkilotlar haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lishi kerak.

Chunki o‘z huquqlarini bilgan inson mehnat munosabatlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan suiiste’molchiliklarga nisbatan himoyalangan bo‘ladi.

Shuningdek, xususiy bandlik agentliklari mas’uliyati ham inson manfaatlari bilan o‘lchanishi kerak. Shuning uchun xususiy bandlik agentliklari faoliyatini kengaytirish va mas’uliyatini oshirish bilan birga ularning ochiq reytingini yuritish va bunda fuqarolar huquqlari himoyasi hamda ijtimoiy kafolatlarni asosiy mezonlardan biri sifatida belgilash maqsadga muvofiq.

Ombudsman sifatida bu jihatni alohida ahamiyatli deb hisoblayman. Sababi, fuqaroni xorijga ishga yuborish bilan agentlikning mas’uliyati tugamasligi lozim. Ishga joylashtirishda berilgan va’dalarning amalda bajarilishi, mehnat shartnomasiga rioya etilishi, ish haqining o‘z vaqtida to‘lanishi va fuqaro huquqlari buzilganda unga ko‘mak ko‘rsatilishi ham muhim.

Agentliklar tomonidan taklif etilayotgan ish o‘rinlari, xizmat haqi va mehnat shartlari haqidagi ma’lumotlar ochiqligi fuqarolarni aldangan holda noqonuniy vositachilik va odam savdosi xavfidan himoya qilishda muhim o‘rin tutadi.

Davlatimiz rahbarining yig‘ilishda bildirgan quyidagi so‘zlari juda muhim: **“Chet elda mehnat qilayotgan birorta yurtdoshimiz o‘z muammosi bilan yolg‘iz qolmasligi kerak, Vatanining himoyasini sezishi zarur”.**

Qolaversa, qiyin vaziyatga tushgan fuqarolarning “Onlayn mahalla” platformasi orqali murojaat qoldirish imkoniyati yaratilishi, zarur hollarda elchilarning xorijda ishlayotgan fuqarolar huquqlarini himoya qilish, ularning ish beruvchilar bilan yuzaga kelgan muammolarini hal etish, ish vizalari va mehnat kvotalari masalalarida ko‘maklashish bilan shaxsan shug‘ullanishi belgilandi.

Bunda eng muhim jihat murojaatning qabul qilinishi bilangina cheklanmay, unda ko‘tarilgan masalaning vakolatli organlar tomonidan o‘z vaqtida va natijali ko‘rib chiqilishidir.

Shu jihatdan xorijiy davlatlarning ombudsmanlari bilan fuqarolar murojaatlarini birgalikda ko‘rib chiqish, huquqiy yordam mexanizmlarini takomillashtirish va amaliy hamkorlikni kengaytirish ombudsman instituti faoliyatida muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

Migratsiyaning ijtimoiy ta’siri faqat xorijda ishlayotgan inson bilan cheklanmaydi. Uning ortida oila, farzandlar, keksa ota-onalar bor. Mehnat migratsiyasi oila daromadini oshirish bilan birga ayrim hollarda farzandlar tarbiyasi, ta’lim olishi, oila a’zolarining ijtimoiy va ruhiy holati bilan bog‘liq masalalarni ham yuzaga keltiradi.

Shu bois, Prezidentimiz tomonidan hokimlarga xorijda mehnat qilayotgan fuqarolarning oilalari, ota-onalari va farzandlarini qo‘llab-quvvatlash vazifasi yuklatildi.

Bunday qo‘llab-quvvatlashda bolalar manfaatlari ustuvor bo‘lishi, ularning ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari ta’minlanishi zarur.

Kelajakka ishonch

Yig‘ilishda ko‘tarilgan yana bir muhim masala xorijda orttirilgan ish staji va pensiya huquqlarini tan olish bilan bog‘liq bo‘ldi.

Bugun fuqarolarimiz 40 dan ortiq davlatda qonuniy mehnat qilib, pensiya badallarini to‘lamoqda. Ushbu yo‘nalishda Qirg‘iziston, Ozarbayjon va Turkiya bilan ikki tomonlama bitimlar imzolangani, boshqa davlatlar bilan ham shunday kelishuvlarga erishish vazifasi belgilangani fuqarolarning uzoq muddatli ijtimoiy himoyasi uchun ahamiyatlidir.

Inson xorijda o‘n yillab mehnat qilib, Vataniga qaytganida uning mehnat faoliyati va ijtimoiy kafolatlari ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Shuning uchun ish staji va pensiya huquqlarini tan olish bo‘yicha davlatlararo kelishuvlarga erishish ijtimoiy adolatni ta’minlashning muhim shartlaridan biridir.

Yig‘ilishda migratsiyadan qaytgan fuqarolar bandligini ta’minlash ham e’tibor markazida bo‘ldi. Unda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, yil boshidan buyon 1 million 116 ming fuqaro xorijdan qaytgan. Yil yakuniga qadar ularning 250 ming nafariga munosib ish topishga ko‘maklashish vazifasi qo‘yildi.

Migratsiyadan qaytish inson uchun yangi qiyinchiliklar boshlanadigan davrga emas, balki to‘plagan tajribasini o‘z yurtida qo‘llash imkoniyatiga aylanishi kerak.

Masalaning yana bir jihati bor. O‘zbekistonga ishlash uchun kelayotgan xorijlik fuqarolar huquqlarini ta’minlash ham e’tibordan chetda qolmasligi lozim.

Shuning uchun migratsiya jarayonlarini tartibga solishda milliy mehnat bozori manfaatlari bilan birga, xorijiy fuqarolarning qonuniy huquqlari, sha’ni va qadr-qimmati hurmat qilinishi ham muhimdir.

Umuman olganda, Prezidentimiz raisligida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda belgilangan vazifalar mehnat migratsiyasiga faqat iqtisodiy va ijtimoiy jarayon emas, balki inson huquqlari va qadr-qimmatini ta’minlash nuqtai nazaridan ham yondashish zarurligini ko‘rsatdi. Bu esa ombudsman instituti zimmasiga ham alohida mas’uliyat yuklaydi.

Zero, xorijdagi fuqarolarimiz huquqlarini himoya qilishda eng muhim mezon ularning qonunlarda belgilangan kafolatlardan amalda foydalana olishidir. Shu bois, ombudsman xorijdagi yurtdoshlarimizning murojaatlarini o‘rganish, huquqlari buzilganda vakolatli idoralar bilan hamkorlikda huquqiy himoya mexanizmlarini ishga solish, shuningdek, parlament diplomatiyasining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida xorijiy davlatlar ombudsmanlari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot va amaliy hamkorlikni kengaytirish, ularning institutsional imkoniyatlaridan foydalangan holda fuqarolarimiz huquqlarini tiklashga ko‘maklashish hamda mavjud huquqiy to‘siqlarni bartaraf etish yuzasidan takliflar kiritishni o‘zining ustuvor vazifalaridan biri deb biladi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, oilasi farovonligi, farzandlari kelajagi uchun olis yurtlarda halol mehnat qilayotgan har bir inson hurmatga munosib. Bu hurmat faqat e’tirofda emas, uning huquqlari himoya qilinishida, murojaatlariga e’tibor berilishida, og‘ir vaziyatga tushganda yordam qo‘li cho‘zilishida ham namoyon bo‘ladi.

Zero, fuqaro davlat himoyasini, eng avvalo, qiyin vaziyatda yolg‘iz qolmaganida his qiladi. Vatanidan qanchalik olisda bo‘lmasin, uning huquqlari, qadr-qimmati va manfaatlari e’tibordan chetda qolmasligi barchamizning mas’uliyatimizdir.

Agrotarmoq

O‘ZGARISHLARNI FAOLIYATIMIZDA, AMALIY NATIJALARDA HIS QILYAPMIZ

Tadbirkorlik rivoji uchun, avvalo, ishonch, erkinlik va tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlaydigan muhit zarur. Chunki tadbirkor o‘z faoliyatini erkin tashkil etsa, oldidagi maqsadlarini aniq belgilasa, davlat tomonidan zarur ko‘mak va imkoniyatlarga ega bo‘lsa, yangi ish o‘rinlari yaratadi, ishlab chiqarishni kengaytiradi va iqtisodiyot rivojiga munosib hissa qo‘shadi.





Azamat SULTONOV,
“Buxoro Agroklaster Chorva” korxonasi rahbari

Bundan o‘n yillar oldingi tadbirkorlik muhitini bugungisi bilan taqqoslasak, juda katta farqni ko‘ramiz. O‘sha paytlarda ish boshlash, faoliyatni kengaytirish haqida o‘ylaganda, turli tekshiruvlar, ortiqcha ovoragarchiliklar va ertangi kunga ishonchsizlik ko‘nglimizda xavotir uyg‘otardi. Bugun esa tadbirkorlikka munosabat tubdan o‘zgardi. Biznes vakillarini qo‘llab-quvvatlash, tashabbuslarini ro‘yobga chiqarish, muammolarini hal etish va yangi loyihalarni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Eng muhimi, bu o‘zgarishlarni kundalik faoliyatimizda, amaliy natijalarda his qilyapmiz.

“Buxoro Agroklaster Chorva” korxonamiz faoliyati ham ana shu imkoniyatlar samarasining bir namunasidir. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan paxtachilik-to‘qimachilik klasterlari oldiga chorvachilik majmualari tashkil etish, ularning quvvatini bosqichma-bosqich ming boshdan uch ming boshgacha yetkazish vazifasi qo‘yilgan edi. Biz ham ushbu tashabbusni qo‘llab-quvvatlab, chorvachilik yo‘nalishida yirik loyihani amalga oshirishga kirishdik.

Dastlab Germaniya, Niderlandiya, Chexiya va Shveysariya kabi davlatlardan 1,5 ming bosh naslli qoramol olib keldik. Bugun ularning soni uch ming boshga yetdi. Mazkur ko‘rsatkich ortida katta mehnat, izlanish, zamonaviy tajribani o‘rganish va ishlab chiqarish jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etish sa’y-harakatlari turibdi. Davlatimiz tomonidan ajratilayotgan subsidiyalar, tadbirkorlar muammolarini hal etishda ko‘rsatilayotgan amaliy yordam va yaratilayotgan qulayliklar faoliyatimizni rivojlantirishda muhim tayanch bo‘lmoqda.

Bugun majmuada 2 ming bosh sog‘in sigir va 1 ming bosh buzoq parvarishlanmoqda. Ishlab chiqarish quvvatlarimizdan kelib chiqib, yiliga 71 milliard so‘mlik sut, 440 milliard so‘mlik go‘sht mahsulotlari hamda 22 milliard so‘mlik naslli buzoq yetishtirib, ichki bozorga yetkazib berish yo‘lga qo‘yilgan. Bu ko‘rsatkichlar mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan to‘ldirish va mahalliy ishlab chiqarish salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Faoliyatimizda yana bir muhim yo‘nalish — xonadonlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga alohida e’tibor qaratyapmiz. Hozirga qadar 500 ta xonadonga sutdor sigirlar yetkazib berildi. Ulardan sutni o‘zimiz qayta sotib olib, qayta ishlash orqali tayyor mahsulotga aylantiryapmiz. Bu tizim aholi uchun qo‘shimcha daromad manbai yaratish, xonadonlarda chorvachilikni rivojlantirish va sut mahsulotlari ta’minotini barqarorlashtirishga xizmat qilmoqda. Kelgusida hamkorlikdagi xonadonlar sonini mingtaga yetkazishni rejalashtirganmiz.

Bizningcha, klaster tizimining eng katta afzalligi ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini o‘zaro bog‘lash, qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirishdan tortib, uni qayta ishlash va iste’molchiga yetkazib berishgacha bo‘lgan jarayonni yagona tizim asosida tashkil etishdir. Bu orqali mahsulot sifati nazorat qilinadi, ishlab chiqarish samaradorligi oshadi, fermer va xonadonlar uchun barqaror hamkorlik muhiti shakllanadi.

Rejalarimiz katta. Chorva mollari nasldorligini yaxshilash, ishlab chiqarish hajmini oshirish, qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytirish va xonadonlar bilan hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishni maqsad qilganmiz. Buning uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ilg‘or xorijiy tajribani o‘zlashtirish va malakali mutaxassislar salohiyatidan samarali foydalanishga alohida e’tibor qaratamiz.

Biz, tadbirkorlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlarni katta mas’uliyat sifatida qabul qilamiz. Zero, davlatning ishonchi va qo‘llab-quvvatlashiga amaliy natijalar bilan javob berishimiz kerak. Har bir yangi loyiha, yaratilgan ish o‘rni, yetishtirilgan mahsulot va qo‘shimcha daromad topayotgan xonadon ortida shu mas’uliyat mujassam. Ishonchimiz komilki, tadbirkorlikka ko‘rsatilayotgan e’tibor, izchil islohotlar va yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini yanada yuksaltirishga munosib hissa qo‘shamiz.



Tahlil

MUSTAHKAM POYDEVOR

Prezidentimizning Qashqadaryo viloyatiga tashrifi davomida belgilab berilgan vazifalar hudud rivojida katta ahamiyat kasb etadi



Prezidentimizning yaqinda Qashqadaryo viloyatiga tashrifi ayricha mazmun va mohiyatga ega bo‘ldi. Zero, tashrif davomida vohaning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini yanada yuksaltirish, aholi turmush farovonligini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va mavjud muammolarga amaliy yechim topish bilan bog‘liq misli ko‘rilmagan istiqbolli rejalar va tashabbuslar ilgari surildi. Bu galgi tashrif mazmuni “Bilimga — rag‘bat, mehnatga — imkoniyat, tashabbusga — madad” shiorida bo‘y ko‘rsatdi.

Sanjar CHORIYEV,
Qarshi davlat universiteti professori

Bilimga — rag‘bat

Prezidentimiz ilgari surgan ushbu hayotiy tamoyil zamirida inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish, yigit-qizlarimizning bilim va kasb-hunar egallashga intilishlarini qo‘llab-quvvatlash g‘oyasi mujassam bo‘ldi.

Bugungi kunda bilim va kasb-hunar nafaqat shaxsiy kamolot, balki iqtisodiy taraqqiyot, ijtimoiy barqarorlik va turmush farovonligining ham muhim omilidir. Shuning uchun davlat siyosatida yoshlarga sifatli ta’lim berish, zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish borasidagi intilishlarini rag‘batlantirish, o‘zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirish choralariga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. Davlatimiz rahbari ilg‘or kasbiy mahorat texnikumi va uning negizida tashkil etilgan “Kasblar shaharchasi” faoliyati bilan tanisharkan, yoshlarni kasb-hunarga o‘rgatish, bilim va malakasini oshirish, zamonaviy mehnat bozori talablariga mos mutaxassislar tayyorlash masalalariga e’tibor qaratdi. Qiymati 42 milliard so‘m bo‘lgan mazkur texnikumda 10 ta yo‘nalish bo‘yicha 417 yosh tahsil olayotgani, o‘quv jarayoniga Germaniya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, Xitoy va Janubiy Koreyaning ilg‘or tajribalari tatbiq etilayotgani kasbiy ta’limni xalqaro tajriba asosida tashkil etishga intilishlar intensiv tus olayotganini ko‘rsatib turibdi. Texnikumda yoshlarga nazariy bilim ulashish bilan cheklanmasdan, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga ham ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Bilimga rag‘bat berishning yana bir muhim yo‘nalishi iqtidorli o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq. Mamlakatimiz yetakchisi viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga bag‘ishlangan yig‘ilishda Qarshi shahridagi Prezident maktabi “Cambridge” imtihonlarida respublika bo‘yicha yuqori natija qayd qilganini, Abdulla Oripov nomidagi ijod maktabining “Zakovat” turnirida g‘olib bo‘lganini e’tirof etdi. Kosonlik o‘quvchi Murodjon Halimovning SAT imtihonida maksimal 1600 ball to‘plaganini alohida qayd qilib o‘tdi. Shu munosabat bilan kelgusi yildan har bir tumanda bittadan maktabda aniq fanlarni chet tilda o‘qitishni yo‘lga qo‘yish, barcha tumanlarda robototexnika to‘garaklarini tashkil etish vazifalari belgilab berildi. Qashqadaryolik 500 yoshni nemis tiliga o‘qitib, Germaniyada haq to‘lanadigan amaliyotga yuborish tashabbusi ilgari surildi.

Prezidentimiz Qarshi davlat universitetida ta’lim olish va ilmiy tadqiqotlar qilish uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. Universitetning ta’lim salohiyati, xalqaro hamkorligi, zamonaviy ilmiy infratuzilmasi va talabalar uchun yaratilgan qulayliklarga e’tibor qaratildi.

Ayni paytda Qarshi davlat universitetida bakalavriat va magistratura bosqichlarida 14 mingdan ortiq talabaga 579 professor-o‘qituvchi tahsil bermoqda. Universitetda ingliz filologiyasi, matematika, amaliy matematika va fizika ta’lim yo‘nalishlari xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazilgan. Rossiya va Belarus oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda 14 ta qo‘shma ta’lim dasturi ishga tushirildi. Keyingi yillarda tillar fakultetida ming o‘rinli zamonaviy mediastudiya, shuningdek, xitoy, nemis, fransuz, ingliz va rus tillarini o‘rganish markazlari tashkil etildi. Xalqaro dasturlar doirasida sinxron tarjimonlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Oliygohda ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga qaratilgan muhim qadamlardan biri yettita laboratoriyani birlashtirgan Xalqaro laboratoriyalar markazi tashkil etilgani bo‘ldi. Hozir markazda sun’iy intellekt, mashinali o‘qitish va robototexnika yo‘nalishlarida ilmiy izlanishlar qilinmoqda. Universitetda talabalar uchun uchta yangi turar joy qurilib, 1300 dan ortiq qo‘shimcha o‘rin yaratildi. Natijada bu boradagi ehtiyoj to‘liq qoplandi.

Oliygoh hududida 240 o‘rinli bolalar bog‘chasi, kutubxona, oshxonalar, yoshlar markazi va anjumanlar saroyi faoliyat yuritmoqda. Universitet huzurida “Lochin” futbol jamoasi tashkil etilib, uning mashg‘ulotlari uchun zamonaviy sport maydoni qurilgan. Davlatimiz rahbari universitetdagi sharoitlar bilan tanisharkan, ularni zamonaviylashtirishga doir qimmatli g‘oya va takliflarni ilgari surdi. Tashrif davomida kasbiy ta’limni takomillashtirish, iqtidorli yoshlarni rag‘batlantirish, zamonaviy fan va texnologiyalarni o‘rganish uchun yangi imkoniyatlar yaratish bo‘yicha belgilab berilgan vazifalar “Bilimga rag‘bat” tamoyilining amaliy ahamiyatini ochib berdi.

Mehnatga — imkoniyat

Ushbu hayotiy tamoyil zamirida voha ahlining halol mehnat orqali farovon hayotga erishishga bo‘lgan sa’y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlash g‘oyasi mujassam, desak ayni haqiqat. “Mehnatga — imkoniyat” tamoyili chuqur ijtimoiy-iqtisodiy mazmunga ega. Uning mohiyati shundaki, taraqqiyotga yuz tutayotgan har bir yurtda insonning halol mehnat qilishi, iqtidorini namoyon etishi, tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmog‘i lozim. Buning uchun ish o‘rinlari sonini ko‘paytirish bilan cheklanmasdan, aholining mehnat salohiyatidan samarali foydalanish, mehnat natijalarini munosib qadrlash ham taqozo etiladi. Bu borada davlatimiz rahbarining sanoat korxonalari, qishloq xo‘jaligi va mehmonxona biznesi sohalarida yangi ish o‘rinlari yaratadi.

“Mehnatga — imkoniyat” tamoyili ahamiyati sanoatni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalash, turizm imkoniyatlarini kengaytirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va mahallalarda bandlikni ta’minlash kabilarda namoyon bo‘ladi.

Tashabbusga — madad

Ushbu hayotiy tamoyil zamirida fuqarolar tashabbuslarini amaliy natijaga aylantirish g‘oyasi turibdi. Jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda tashabbuskorlikning ahamiyati beqiyosligini isbotlashga hojat yo‘q. Zero, har qanday islohot muvaffaqiyati jamiyat a’zolarining yangilikka intila olishi, o‘z g‘oyalarini amaliy natijaga aylantirishi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, Prezidentimizning Qashqadaryo viloyatiga tashrifi davomida ilgari surgan “Tashabbusga — madad” tamoyili alohida ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega.

Ushbu tamoyilni hayotga tatbiq etish uchun Qashqadaryo viloyatida yetarli iqtisodiy va ijtimoiy salohiyat mavjud. Viloyatda sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish, turizm va hunarmandlik sohalarida yangi g‘oyalarni amalga oshirish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish va aholi bandligini kengaytirish imkoniyatlari katta. Biroq davlatimiz rahbari mulohazalaridan ko‘rinadiki, bu ishlarni ro‘yobga chiqarish uchun tashabbuskor fuqarolarni aniqlash, ularning loyihalarini puxta baholash, zaruriy resurslar bilan ta’minlash, tashabbuslarning natijadorligini muntazam kuzatib borish talab etiladi.

Har qanday ijtimoiy ahamiyatga molik ilg‘or tashabbus moliyaviy va tashkiliy jihatdan keng qo‘llab-quvvatlanganidagina ro‘yobga chiqadi. Shuning uchun tadbirkorlarga kredit ajratishda



loyihalari va mahallalardagi bunyodkorlik ishlari bilan tanishuvi alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Jumladan, Qarshi shahridagi “Sulton tex group” to‘qimachilik klasteri fabrikasida 54 million dollarlik loyiha amalga oshirilib, yiliga 20 ming tonna mato ishlab chiqarish va bo‘yash quvvatlari yo‘lga qo‘yilgan, 840 ta ish o‘rni yaratilgan. Korxonada suvning 95 foizdan ortig‘ini tozalab qayta ishlatish imkonini beruvchi tizim joriy etilgani iqtisodiy samaradorlikni ekologik mas’uliyat bilan uyg‘unlashtirish mumkinligini ko‘rsatib turibdi.

Qashqadaryoning mehnat va tadbirkorlik salohiyatidan oqilona foydalanishda qishloq xo‘jaligi muhim o‘rin tutadi. Viloyatning iqlim sharoiti, yer va suv resurslari, dehqonchilik hamda chorvachilik an’analari yangi daromad manbalarini shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Davlatimiz rahbari viloyat qishloq xo‘jaligi sohasining o‘zi qo‘shimcha ravishda 200 ming kishini daromadli qilishi mumkinligini ta’kidladi. Buning uchun yaylovlardan samarali foydalanish, chorvachilik komplekslari tashkil etish, yangi yer maydonlarini o‘zlashtirish va suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy qilish kerakligi aytildi.

Imkoniyat yaratishda mahallalarning o‘rni katta. Bu borada Qamashi tumanidagi Chim mahallasi tajribasi alohida e’tiborga loyiq. Mahallada ijtimoiy infratuzilma obyektlarini qurish, aholini ish bilan ta’minlash evaziga kambag‘allikni bartaraf etish borasida ko‘zga ko‘rinarli natijalarga erishilgan. Davlatimiz rahbari ushbu tajriba asosida kelgusi yilda har bir tumanda ikkitadan zamonaviy mahalla markazini tashkil etishni taklif qildi.

Prezidentimiz aholi bandligini ta’minlashda turizm salohiyati alohida o‘rin tutishini qayd etdi. Viloyatga yil boshidan buyon 2,5 milliondan ortiq sayyoh kelgani, jumladan, G‘elon qishlog‘iga tashrif buyurganlar soni 500 ming kishiga yetgani mazkur sohaning iqtisodiy imkoniyatlarini yorqin namoyon etib turibdi. G‘elonda tog‘-chang‘i kurorti rivojlantirilishi, tog‘ qishloqlarida etnoturizm tashkil etilishi, Shahrisabz tumanida rafting va sport turizmi yo‘lga qo‘yilishi mahalliy aholi uchun xizmat ko‘rsatish, hunarmandlik, umumiy ovqatlanish ularning pul oqimi va aniq buyurtmalarini hisobga olish, ortiqcha hujjatbozlikni qisqartirish zarurligi alohida ta’kidlandi.

Shuningdek, hududlarni rejali rivojlantirish, aholi uchun zamonaviy yashash muhitini yaratish va ekologik barqarorlikni ta’minlash tashabbuslariga e’tibor qaratildi. Qarshi shahri, Ko‘kdala va Qarshi tumanlari chegarasida 500 ming aholiga mo‘ljallangan Yangi Qarshi shahrini barpo etish, yangi hududlarni “yashil” va “aqlli” shahar tamoyillari asosida rivojlantirish rejalari shular jumlasidandir. Mahallalarda yashil hududlarni ko‘paytirish, ko‘chat ekish va har yili Navro‘z arafasida “Eng yashil mahalla” tanlovini o‘tkazish tashabbuslari esa aholining ekologik madaniyatini oshirish hamda jamoaviy mas’uliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu tashabbuslar fuqarolarni islohotlarning faqat kuzatuvchisiga emas, balki bevosita ishtirokchisiga aylantiradi.

Prezidentimizning Qashqadaryoga tashrifi nafaqat kelgusidagi vazifalarni belgilab olish imkonini berdi, balki aholini ruhlantiruvchi, kayfiyatini ko‘taruvchi, kelajakka ishonchini oshiruvchi omil bo‘lib xizmat qildi. Tashrif davomida voha iqtisodiy imkoniyatlarini aholi ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirishga urg‘u berildi. Bunday yondashuv odamlarda o‘z muammolari e’tibordan chetda qolmayotgani, turmushini farovonlashtirish masalasiga ustuvor vazifa sifatida qaralayotgani haqidagi tasavvurni kuchaytirdi. Ayni paytda voha ahli kayfiyati va kelajakka ishonchining mustahkamlanishi tashrifning o‘zi bilangina emas, balki belgilangan vazifalarning qadr-qimmati va ko‘lami bilan ham bog‘liq bo‘ldi.

Uchrashuv chog‘ida viloyat aholisi, tadbirkorlar, yoshlar va ta’lim muassasalari vakillarining umidlari, tashabbuslariga alohida e’tibor qaratildi. Bu esa kishilarni o‘z g‘oyalarini amalga oshirish, voha rivojiga munosib hissa qo‘shish sari ruhlantirdi. Ayniqsa, iqtidorli yoshlar yutuqlari e’tirof etilishi, ularning bilim olishi va kasbiy rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar taqdim etilishi voha yigit va qizlarining qaddini ko‘tardi, kelajakka ishonchini yuksaltirdi.

Ta’lim odimlari



UCHINCHI RENESSANSNI BILIM VA ZAKOVATI BALAND, DUNYOQARASHI KENG KADRLAR YARATADI

Mutaxassislar fikricha, inson o‘qish orqali 10 foiz, ko‘rish orqali esa uch barobar ortiq — 30 foiz ma’lumotni oladi. Dunyo ilmidagi “O‘rganish piramidasi” deb nomlangan xalqaro modelda bu jihatga katta e’tibor qaratilib, o‘qish, eshitish, ko‘rish orqali bilim to‘plash samaradorligi o‘rganilgan va tadqiqot natijasiga ko‘ra, bilim olishning eng samarali usullari soha vakillari bilan muhokama qilish, fikr almashish yoki ishni amalda bajarish hisoblanadi. Shuning uchun ta’lim taraqqiyotida xorijiy ta’lim muassasalari bilan o‘zaro tajriba almashish, xalqaro anjumanlarda ishtirok etish, talabalar almashinuvi, professor-o‘qituvchilarning chet elda malakasini oshirish tizimi muhim o‘rin tutadi.



Ziyoda MUHAMMEDOVA,
Toshkent davlat transport universiteti professori

Ushbu jarayonlarda ma’lumot olishning barcha usulidan foydalaniladi. Masalan, o‘qituvchi malaka oshirish uchun nufuzli xorijiy universitetga borish orqali u yerdagi ta’lim tizimi bilan tanishadi. Ta’lim dargohining professor-o‘qituvchilari bilan o‘zaro fikr almashib, mulohaza yuritadi. Shuningdek, o‘quv jarayonlarida qatnashishi yoki u yerdagi talabalarga dars o‘tib ko‘rishi mumkin.

Keyingi yillarda yurtimiz ta’lim tizimidagi tub islohotlarda chet davlatlar universitetlari bilan hamkorlikda xalqaro tajriba almashishga alohida urg‘u berilmoqda. Xususan, chet ellik mutaxassislarni o‘zbek ta’lim tizimiga jalb qilish, mamlakatimizda dunyoning nufuzli universitetlari filiallarini ochish, o‘zimizning mutaxassislarni xorijga malaka oshirish uchun yuborish masalasiga jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz tashrif bilan qay davlatga bormasin, albatta, o‘sha mamlakatning ta’lim tashkilotlari, xususan, vazirliklari, o‘quv yurtlari bilan shartnoma qilish asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida qaraladi.

Birgina misol. Yil boshida Turkiyaga tashrif chog‘ida ta’lim sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida hukumatlararo bitim imzolandi. Unda bir qator yo‘nalishlar — oliy ta’limda, ta’lim muassasalari o‘rtasida aloqalarni rivojlantirish, ilmiy va akademik hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi. Jumladan, mamlakatimizda ochilgan Turkiy davlatlar xalqaro universitetiga Turkiyadan akademik kadrlar jalb qilish masalasi ko‘rib chiqildi.

Germaniya Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayerning O‘zbekistonga rasmiy tashrifi doirasida O‘zbekistonda Germaniya Amaliy fanlar universitetini tashkil etish, dual ta’lim tizimini takomillashtirish, ta’lim muassasalari va ish beruvchilar hamkorligini kengaytirish, qo‘shma loyihalarni amalga oshirish kabi salmoqdor shartnomalar tuzildi. O‘zbekistonning ta’lim sohasidagi hamkorligiga nazar tashlasak, u asosan beshta yo‘nalishda kechayotganini ko‘rish mumkin.

Birinchisi, akademik mobillik, ya’ni talabalar va professor-o‘qituvchilarning xorijda tajriba almashishini, bilimini orttirishni tashkil etish; ikkinchisi, xorijiy ta’lim muassasalari mutaxassislarini O‘zbekiston universitetlariga ishlash, ma’ruza va seminar mashg‘ulotlariga jalb etish; uchinchisi, qo‘shma ta’lim dasturlarini ishlab chiqishda hamkorlik qilish; to‘rtinchisi, xorijiy ta’lim muassasalari filiallarini ochish; beshinchisi, qo‘shma tadqiqotlar, ilmiy laboratoriyalar, konferensiyalar va xalqaro ilmiy loyihalarni rivojlantirish.

Ushbu hamkorlik ta’lim tizimimizning keyingi taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarimizdan xalqaro tajribaga ega, dunyoqarashi keng, yetuk kadrlar yetishib chiqishiga katta hissa qo‘shayotir. Bunday yetuk kadrlar esa, o‘z navbatida, kelgusida mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jihatdan yanada barqarorlashishi, taraqqiy etishiga o‘z hissasini qo‘shadi.

Xorijiy davlatlar va ularning ta’lim muassasalari bilan hamkorlik kuchayishi oliygohlarimizga xalqaro ta’lim sifati mezonlarini joriy etishda qo‘l kelmoqda. Xususan, bu yo‘lda o‘tgan yili TOP — 500 talikka kirgan 9 ta xorijiy oliygoh bilan kelishuvlarga erishilib, ular bilan hamkorlikda 17 ta qo‘shma ta’lim dasturi qabul kvotalari tasdiqlandi. 11 ta oliygohdagi 40 ta ta’lim dasturi xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazildi.

TOP — 300 talikka kirgan xorijiy oliygohlarning ta’lim dasturlari asosida davlat oliy ta’lim tashkilotlaridagi yuqori kurslarning 14 mingdan ortiq o‘quv dasturi takomillashtirildi. Professor-o‘qituvchilar salohiyatini oshirish masalasiga alohida e’tibor qaratildi. 6139 professor-o‘qituvchi xorijda malaka oshirdi, 3859 xorijiy professor-o‘qituvchi esa o‘quv jarayoniga jalb etildi.

Ayniqsa, xorijiy ta’lim muassasalari bilan yo‘lga qo‘yilayotgan akademik almashinuv dasturlari ta’lim sohasi modernizatsiyalashuvi hamda zamonaviy bilimlar maskaniga aylanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda, asosan, rivojlangan mamlakatlardagi universitetlar ta’lim jarayonlarida kompyuter texnologiyalari, raqamlashtirish va ilm-fan sohasidagi inqilobiy o‘zgarish — sun’iy intellektdan qanday samarali foydalanilayotgani o‘rganilmoqda.

Shunday xalqaro akademik almashinuv dasturi doirasida O‘zbekiston akademik hamjamiyati vakillari qatorida men ham AQSHning Nyu-Jersi shtatidagi Rouen universitetida bo‘ldim. Dastur ishtirokchilari u yerda zamonaviy texnologiyalar, sun’iy intellekt, transport muhandisligi, logistika va innovatsion o‘qitish usullari bilan yaqindan tanishtirildi. Ushbu universitet dunyo ilm-fan sohasida bugungi kunda muhandislik, sun’iy intellekt, biznes, tibbiyot, ta’lim va amaliy-ilmiy tadqiqotlar sohalaridagi yutuqlari bilan tanilgan yirik davlat tadqiqot oliygohlaridan biri. Hamkasblar bilan birga turli ekspertlar ma’ruzalari, sun’iy intellekt bo‘yicha seminarlar, laboratoriyalarga tashriflar, amaliy namoyishlar va interaktiv muhokamalarda qatnashdik. Tadbirlar sun’iy intellekt, virtual reallik, “aqlli” texnologiyalar va ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish jarayonlari oliy ta’lim, muhandislik hamda transport tizimlarini qanday o‘zgartirayotgani haqida qimmatli ma’lumotlarni berdi.

Malaka oshirish davomida sun’iy intellekt imkoniyatlari bilan takomillashtirilgan ta’lim modeli bo‘yicha tasavvurim kengaydi. Transport muhandisligi sohasidagi muammolarni hal etishning istiqbolli yo‘llarini ko‘rdim. Bunday akademik almashinuvlar professor o‘qituvchilarning bilim-malakasini yanada orttirib, o‘z ilmiy tadqiqot ishini yanada puxta va samarador, jamiyat rivojiga ko‘proq hissa qo‘shadigan qilib tayyorlashi uchun zamin hozirlaydi. Albatta, ushbu tajriba to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’lim tizimi rivojiga ham katta hissa qo‘shadi.

Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimini isloh qilishda xalqaro hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy dunyoda nafaqat ta’lim tizimi, balki mamlakatning hech bir sohasi o‘z qobig‘iga o‘ralgan holda taraqqiy eta olmaydi. Shu nuqtai nazardan, turli sohalarda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish O‘zbekiston rivojida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, dunyoqarashi keng yetuk kadrlar yetishtirishda bu juda muhim. Boisi, yangi O‘zbekistonni aynan shunday kadrlar yaratishi mumkin.


2026-yil 6-noyabr, 230-son

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Abdurauf Fitrat tavalludining 140 yilligi

MILLAT RUHINING MUHANDISI



Bu yilgi ta’tilni o‘zim tug‘ilib voyaga yetgan maskanda, qadrdonlarim davrasida o‘tkazdim. Fursatdan foydalanib, buyuk allomalar va yetti pir beshigi bo‘lgan qadimiy Buxoroning muqaddas qadamjolarini ziyorat qildim. Bu tabarruk zaminda ulug‘ zotlar qatorida joriy yil qutlug‘ 140 yillik tavalludi nishonlanayotgan birinchi o‘zbek professori, tarixchi olim, mahoratli tarjimon va otashnafas adib Abdurauf Fitrat ham kamol topgan.

Adib nomi bilan ataluvchi Fitrat ko‘chasi bo‘ylab yurar ekanman, atrofning fayzu tarovati o‘zgacha ekanini his qildim — go‘yo ma’rifatparvarlik ruhi haliyam bu maskanda kezib yurgandek. Xushhavo Fitrat bog‘iga qadam qo‘yganimda esa majnuntollar shivirida shoirning otashin she’rlari qayta aks sado berayotgandek bo‘ldi:

Bormi senda bizim kabi insonlar,
Ikki yuzli ishbuzarlar, shaytonlar.
O‘rtoq qonin qonmay ichkan zuluklar,
Qardosh etin to‘ymay yegan qoplonlar?

Bog‘ bag‘rida qad rostlagan Abdurauf Fitrat uy-muzeyi ostonasidan hatlar ekanman, allomaning qo‘lyozmalari, o‘sha davr suronlaridan omon qolgan toshbosma kitoblarning asl nusxalari hamda yurak qoni bilan yozilgan asarlari bilan yuzma-yuz keldim.

Muzeydagi tarixiy xotiralar og‘ushidan chiqib, ko‘hna shaharning qadimiy qismi tomon piyoda yo‘l oldim. Baland devorli tor ko‘chalarni tomosha qilib, nihoyat mahobatli Mir Arab madrasasi qarshisida to‘xtadim. Eski shaharga oqshom sokinlik bilan cho‘kayotgan bir pallada asrlar davomida qanchadan qancha hukmdorlar, fozillar va zohidlarni ko‘rgan moviy gumbazlar uzra azon ovozi taraldi.

Ushbu muazzam sado asriy sukunatni buzib, kuzning izg‘irinli havosida qalbimga ajib bir titroq soldi. Xayolan shu madrasaning kichkina, sovuq va zax hujralaridan biriga mo‘ralayman. Go‘yo amirlik tuzumi va turg‘unlik hukmron bo‘lgan o‘sha olis yillarda bir yigit qo‘llarida sarg‘aygan qadimiy qo‘lyozmalarni tutgancha, chiroq nurida xayolga cho‘mib o‘tirgandek gavdalanaverdi.

Bu yigit — Abdurauf Fitrat. O‘tmish va bugungi kun sukunatini tinglab turgan madrasaning baland devorlari orasida bo‘lajak adib nafaqat diniy ilmlarni mukammal egallagan, balki ona tilimizni, madaniyatimizni asrab qolish haqida qalbida buyuk bir isyonni pishitib borgan bo‘lsa, ne ajab.

O‘zbek tili shunchaki oddiy so‘zlashuv vositasi emas, balki xalqning borlig‘i, yashab qolish sharti ekanini bo‘lajak olim mana shu madrasa hujrasida tunlarni tongga ulab, yurak-yurakdan anglab yetganini bugun — oradan bir asrdan ortiq vaqt o‘tib, aynan shu yerda uning muxlisi o‘laroq yanada teranroq his qildim.

Fitrat fenomeni

Abdurauf Fitrat (asl ismi Abdurauf Abdurahim o‘g‘li) — yozuvchi, tarixchi, adabiyotshunos, tilshunos, san’atshunos va siyosatshunos olim, taniqli davlat hamda jamoat arbobi, birinchi o‘zbek professori. U dastlab Mir Arab madrasasida tahsil ko‘rgan. 1902-1903-yillarda haj safari munosabati bilan Turkiya, Hindiston va Arabiston mamlakatlarida, taxminan 1906-1908-yillarda esa Rossiyaning Moskva, Peterburg singari shaharlarida bo‘lgan. Shundan keyin Fitrat o‘qishni davom ettirish istagida 1909-1913-yillarda Istanbulda yashagan. Abdurauf Fitratning boy ilmiy va adabiy merosini bugungi davr mezonlari asosida qayta anglash, uning adabiyotshunoslikdagi o‘rnini teranroq tahlil qilish maqsadida filologiya fanlari doktori, professor Shoira AHMEDOVAning fikrlariga ham quloq tutdik:

— Fitratning otasi Abdurahimboy o‘qimishli, dunyo ko‘rgan inson sifatida farzandi Abduraufning tarbiyasiga alohida e’tibor qaratgan. Tangrining in’omi bo‘lsa kerak, onasi Mustafobibi yosh Abduraufga Sharq ertaklari, Navoiy va Bedil g‘azallarini o‘qib berib, o‘g‘lining qalbida so‘z san’atiga nisbatan ilk muhabbat uchqunlarini yoqqan.

Fitrat milliy uyg‘onish davri madaniyatimiz va ilm-fanimizning chinakam qomusiy fenomenidir. Arab, fors va turk tillarini mukammal bilgani tufayli Sharqning buyuk allomalari ijodini puxta o‘zlashtirgan.

U adabiyot maydoniga shunchaki shoir yoki dramaturg emas, balki millat tafakkurini isloh qiluvchi olim va adabiyot nazariyachisi sifatida kirib keladi. Uning eng katta xizmati jamiyatga tirik, jo‘shqin va milliy mafkurani olib kirganidadir. Fitrat birinchilardan bo‘lib adabiyotni millatning yashab qolish, o‘zini anglash quroliga aylantirdi. Uning har bir maqolasi va tadqiqoti o‘sha davrda til hamda adabiyot maydonidagi haqiqiy inqilob bo‘lgan.

Buxorolik bir guruh ma’rifatparvarlar ko‘magida Istanbulga o‘qishga yuborilgan yosh olimning dunyoqarashi Turkiya safari chog‘ida butunlay kengaydi. Boisi, Buxorodagi diniy mutaassiblik va turg‘unlik izlanuvchan qalbga torlik qilardi. Istanbul dorilfununidagi tahsil yillari buxorolik yigitni yangi qiyofadagi millat rahnamosiga aylantirdi.



U yerda chop etilgan “Sayha” va “Munozara” asarlari Turkistonda xuddi chaqmoqdek chaqnab, ko‘plarni g‘aflat uyqusidan uyg‘otdi. Olim 1913-yilda yurtga qaytib, katta kurashlar maydoniga kirdi. Ayniqsa, 1920-yilda maorif noziri sifatida Buxoroda ilk bor milliy dorilfunun tashkil etgani, yuzlab iqtidorli yoshlarni Germaniya universitetlariga o‘qishga yuborgani tarixiy jasorat edi.

Uning 1928-yildagi tazkirasi va “Adabiyot qoidalari” asari esa bugungi o‘zbek adabiyotshunosligining fundamental poydevori bo‘lib xizmat qilmoqda. Fitrat sho‘ro armiyasining bosqinchilik siyosatini ochiqdan ochiq qoralagan, millat manfaatini hamma narsadan ustun qo‘ygan jasur rahbar edi.

Iqtiboslarda yashagan haqiqatlar

Milliy o‘zlikni anglash va ona tilimiz nufuzini yuksaltirish haqida so‘z borar ekan, beixtiyor Abdurauf Fitratning ilmiy-ma’rifiy g‘oyalariga tayanamiz. Uning o‘z davrida chop etilgan maqolalari millatning mudroq qalbini uyg‘otgan kuchli nido bo‘lgan: “Agar bir millat o‘z dini, o‘z milliy maktabi va o‘z ona tilidan uzilsa, u millat halokat yoqasiga kelib qoladi. Bizning maqsadimiz millatni g‘aflat uyqusidan uyg‘otmoqdir”.

Adib o‘zbek tilini o‘zga tillar soyasidan olib chiqish, asl sofligini tiklash uchun yeng shimarib, chin ma’noda zamonaviy o‘zbek tilshunoslik ilmi poydevorini qo‘ygan ulug‘ ustozga aylandi. Zahmatli mehnat mahsuli o‘laroq, mashhur “Sarf” (morfologiya) va “Nahv” (sintaksis) asarlari dunyoga keldi.

Bu kitoblar shunchaki quruq qoidalar to‘plami emas, millatning fikrlash tarzini tartibga soluvchi yirik ilmiy kashfiyot edi. Olim yaratgan mezonlar hozirgi zamonaviy o‘zbek adabiy tilining ham tayanchlaridan biri bo‘lib xizmat qilmoqda.

Sadriddin Ayniy 1926-yilda nashr etilgan to‘plamida Fitratning yangi davr she’riyati va ma’rifatparvarlik harakatidagi o‘rnini juda yuqori baholagan. Muallif Fitratni Buxoro ziyolilarining eng peshqadamlaridan biri sifatida ta’riflab, bunday yozadi:

“Fitrat Buxoroda 18 yoshlariga qadar o‘qidi. So‘ng haj qildi. Turkiya, Hindiston, Arabistonda bo‘ldi... Fitrat Buxoro talabalarining eng fozili va ulug‘ ulamosining nazarkardasi edi”.

Fitratshunos olim Hamidulla Boltaboyev esa o‘z tadqiqotlarida allomaning ilmiy maqomini bunday belgilaydi:

“Fitrat nafaqat tilshunos, balki o‘zbek adabiyotshunosligining fan sifatida shakllanishi boshida turgan olimdir. Uning “Adabiyot qoidalari” asari o‘zbek adabiy nazariyasi bo‘yicha birinchi zamonaviy tizimli qo‘llanmadir”.

Adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov ham Fitrat haqida to‘xtalib, bunday deydi:

“Fitrat umummadaniyat muammolari haqidagi, jumladan, Sharq musiqasi tarixiga oid ishlari bilan ham juda katta ilmiy qimmatga ega edi va sharqshunos olimlar doirasida g‘oyat yuksak baholanardi”.

Ha, adib asarlarini varaqlar ekansiz, ulardagi har bir satr va fikr bugungi kun og‘riqlari hamda yutuqlari bilan hamnafas ekaniga guvoh bo‘lasiz. Uning yozganlari shunchaki tarix sahifalari emas, balki millat timsoliga aylangan hayotiy hikmatlardir.

Allomaning ma’naviy merosi, hikmatli so‘zlari oradan bir asr o‘tsa-da, qimmati va quvvatini yo‘qotmadi. Ular mudroq vijdonlarni uyg‘otuvchi, millatning ertangi kuniga yo‘l ko‘rsatuvchi mayoq kabi porlab turibdi.

Dramaturgiya cho‘qqisi

Fitrat nafaqat yirik tilshunos olim, balki o‘zbek adabiyotida yangi janrlar poydevorini qo‘ygan serqirra ijodkordir. U milliy adabiyotimizda dramatik asarlar janrini mutlaqo yangi falsafiy bosqichga ko‘tardi. Adibning “Abulfayzxon” tarixiy dramasi milliy dramaturgiyamizning haqiqiy shoh asarlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Muallif o‘z pyesalari orqali nafaqat zamondoshlarini, balki kelajak avlodni ham ogohlikka va birdamlikni asrashga chaqiradi.

Adib faoliyatining yana bir yuksak qirrasi shundaki, u Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Umar Xayyom va Mashrab kabi ulug‘ siymolar hayoti hamda ijodini birinchi bor soxta mafkuralardan xoli tarzda, ilmiy mezonlar asosida tadqiq etgan.

1928-yilda chop etilgan “O‘zbek klassik adabiyoti namunalari” tazkirasi bugungi kunda ham adabiyotshunoslik ilmining muhim poydevor manbalaridan biri bo‘lib xizmat qilmoqda. Fitrat o‘z ijodi bilan til qoidalari shunchaki quruq mezonlar emas, balki go‘zal san’at asariga, jo‘shqin badiiy tilga aylanishi mumkinligini amalda isbotlab bergan betakror so‘z zargaridir.

Bugun yurtimizda Uchinchi Renessans poydevori yaratilayotgan qutlug‘ davrda jadidlar, xususan, Abdurauf Fitratning “Ilm va ma’rifat najotkordir” degan ezgu g‘oyasiga qayta-qayta murojaat etilmoqda.

Davlatimiz tomonidan Fitratning milliy davlatchilik va ma’rifat yo‘lidagi xizmatlariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

So‘nggi nafas

Afsuski, sho‘rolar imperiyasi millat tili, tarixi va madaniyatini bu qadar teran himoya qilgan, tizimga solgan ulug‘ olim va birinchi o‘zbek professori borligidan qattiq xavfsirardi. Chunki mustabid tuzum uchun mustaqil fikrlaydigan, o‘z ortidan butun bir millatni ergashtira oladigan erksevar shaxslar hamisha eng katta xavf hisoblangan. Oqibatda 1937-yilning bahorida adib “xalq dushmani” degan soxta va mash’um ayblov bilan hibsga olindi. Ammo ayovsiz ruhiy va jismoniy qiynoqli tergovlar ham uning bukilmas irodasini sindira olmadi.

1938-yilning 4-oktabrida Toshkent shahrining mash’um qatlgohlaridan birida Abdurauf Fitratning hayotiga nuqta qo‘yildi. Biroq zo‘ravon hokimiyat uni jismonan yo‘q qilgan bo‘lsa-da, u yaratgan o‘zbek tilshunosligi merosini va millat qalbiga yoqib ketgan ozodlik olovini o‘chira olmadi. Jaholat tig‘i shiddatli ma’rifat oqimini to‘xtatishga ojizlik qildi. Fitratning “Ilm va ma’rifat najotkordir” degan ezgu g‘oyasi dillardan dillarga ko‘chdi.

Adib tavalludining 140 yillik qutlug‘ to‘yi keng nishonlanayotgan joriy yilda o‘z ona tilimizda faxr bilan so‘zlashar ekanmiz, ulug‘ olimning nafasini, so‘nmas ma’naviy quvvatini yurakdan his etamiz.

Zero, Fitrat bizga qoldirgan eng ulug‘ meros ma’nan qaram bo‘lmaslik tuyg‘usi, o‘zlikni asrash matonati va ona tilimizning sofligidir. Ko‘hna Buxoro madrasasining qorong‘i, sovuq hujrasida, miltillagan sham yorug‘ida boshlangan o‘sha buyuk isyon bugun mustaqil yurtimizning porloq istiqbolida, har bir o‘zbek farzandi tilida va dilida mangu yashashda davom etmoqda. Demak, Fitrat ruhi tirik, nafasi barhayot.

Gulichehra DURDIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Oramizdagi odamlar

SINFXONADA TUG‘ILGAN G‘OYA KATTA PEDAGOGIK MAYDONGA CHIQDI



Ayni paytda bolasining telefonga mukkasidan ketmasligi, televizor ko‘rishga kamroq vaqt ajratishi, maktabdan keliboq yana dars tayyorlashga shoshishini istamaydigan ota-ona bo‘lmasa kerak. Biroq hozir bunaqangi bolalar deyarli yo‘q, buning iloji ham yo‘q-da, deyishingiz tabiiy.

Namanganning Uychi tumanidagi 36-umumta’lim maktabining 2-sinfida shunday o‘quvchilar bor. Ularning sinf rahbari Feruza Mirzaxolova buning uchun tinimsiz izlandi. Pedagoglar oilasida ulg‘aygan bu ustoz har gal uyiga borganida, otasi ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar, zamonaviy yondashuvlar va qanday yangilik yaratgani haqida so‘raydi. Zero, 36 yildan buyon yosh avlodga ta’lim-tarbiya berib kelayotgan qizi zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlarni dars jarayoniga tatbiq etishga juda qiziqadi. Eng asosiysi, bu orqali u o‘quvchilarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini muntazam kuzatib boradi. Ularning bilim olishga qiziqishini oshirish maqsadida turli usul va metodlarni sinab keladi. Izlanuvchan ustoz o‘quvchilar bilimini baholashning ham ko‘plab turlarini qo‘llab ko‘rdi. Yangilik yaratish, odatiy dars jarayoniga ijodiy yondashuv olib kirish uning uchun shunchaki kasbiy vazifa emas, chinakam sevimli mashg‘ulotga aylangan. Yangi o‘quv yilini ham yangi g‘oya bilan boshlashni maqsad qilgan pedagog bu gal yana bir yangicha baholash usulini yaratish ustida ko‘p izlandi. Turli g‘oyalar ustida bosh qotirdi. Nihoyat kreativ va o‘zgacha g‘oya — “Sinf akvariumi” (“Class Fish”) dunyoga keldi. Amerikada dasturchilik bo‘yicha tahsil oladigan farzandi bilan fikrlashib, g‘oyani dasturga aylantirdi. Ushbu yangicha yondashuv o‘quvchilarni darslarda faol ishtirok etishga, bilim olishga va o‘z ustida ishlashga rag‘batlantiradi. Dasturga ko‘ra, sinfdagi har bir o‘quvchining monitordagi akvariumda o‘z ismi bilan atalgan baliqchasi mavjud. O‘quvchi dars davomida faol qatnashib, topshiriqlarni bajarib, bilim va ko‘nikmalarini namoyon etgani sari o‘z baliqchasini oziqlantirib boradi. Hafta yakunida natijalar sarhisob qilinib, eng yuqori ko‘rsatkichlarga erishgan o‘quvchilarning suratlari “Sinf yulduzlari” taxtasidan joy oladi.

— Bugungi kun o‘quvchilari zamon bilan hamnafas, axborot texnologiyalariga qiziqishi juda kuchli, — deydi Feruza Mirzaxolova. — “Sinf akvariumi” g‘oyasini oktyabr oyidan amalda qo‘llay boshladik. Har bitta to‘g‘ri javobdan o‘quvchi rag‘batga ega bo‘ladi, baliqchalar esa kattalashib boradi. 35 o‘quvchimning har kungi javoblari akvarium reytingida ko‘rinib turadi. Masalan, dushanba kuni a’lochi o‘quvchim Shukrona Ahmadjonova birinchi o‘ringa chiqib, 30 ball bilan kunni yakunladi. Shu tarzda bir haftalik reytingni chiqarib olishimiz mumkin. Topshiriqni bajara olmagan yoki tartibni buzgan o‘quvchi jamg‘argan ballar kamayib boradi.

Dasturni amaliyotga tatbiq eta boshlaganimdan so‘ng har kungi kichik yutuqlarimni oilam bilan baham ko‘rib bordim. Ota-onalardan kelayotgan fikrlar meni yanada ruhlantirdi. Ularning aytishicha, bolalar uyga kelishi bilan dars qilishga shoshadigan, kamroq televizor ko‘radigan, telefonga avvalgiday yopishmaydigan bo‘lib qolishgan. Menga aynan shunday natija kerak edi. Chunki uyda puxta dars tayyorlagan bola darsda o‘z-o‘zidan faol bo‘la oladi. Maqsadim — yangi O‘zbekistonning chinakam poydevorlarini tarbiyalash, aslida. Biroq o‘g‘lim “Facebook” sahifasida dastur haqida post qo‘yganidan keyin unga dunyo bo‘yicha qiziqish ortdi. Dasturdan foydalanish uchun ruxsat so‘raganlar, boshqalarga ulashganlar soni atigi ikki kun ichida 5-6 milliondan oshdi. Turli mamlakatlardagi ko‘plab hamkasblarim dasturga obuna bo‘lib, undan o‘z faoliyatida foydalanmoqda. Qisqa muddatda 300 mingdan ortiq o‘quvchi yangilikdan foydalanayotganidan xursandman.



Feruza Mirzaxolova xorij mamlakatlarida 300 mingdan ortiq yosh foydalanayotgan mazkur dasturini patentlashni rejalashtirmoqda.

“Men uchun bu shunchaki bir baholash dasturining ommalashuvi emas. Bu oddiy bir sinfda tug‘ilgan g‘oyaning katta pedagogik maydonga chiqishi, o‘qituvchi mehnati qadrlanishi va ijodkorlikning chegarasi yo‘qligiga yorqin dalildir. Bir narsaga amin bo‘ldim: o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki yangilik yaratuvchi, ilhomlantiruvchi va kelajakni bunyod etuvchi insondir. Ba’zan katta o‘zgarishlar aynan kichik sinfdagi oddiy g‘oyadan boshlanadi. “Sinf akvariumi” ham ana shunday g‘oyamning katta orzular sari qo‘ygan ilk qadamidir”, deydi ustoz.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1146.
29189 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Jonibek Alijonov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.